

UNIVERSAL

XALQARO ILMIY JURNAL

Volume 1, Issue 2, 2024



www.universaljournal.uz

TAHRIRIYAT KENGASHI

Bosh muharrir

Abdutilibov Muhridin Zuhridin o'g'li

Bosh muharrir o'rinbosari, texnik muharrir

Xusanov Saydulloxon

TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

01.00.00 – Fizika-matematika fanlari	PhD. I.A.Karimjanov PhD. J. Ziyovitdinov PhD. X.Qo'shaqov
02.00.00 – Kimyo fanlari	k.f.d., dots. N.X.To'xtaboyev k.f.d., dots. O.Sh.Abdullayev
03.00.00 – Biologiya fanlari	b.f.d., prof. N.A.Xo'jamshukurov b.f.d., prof. A.K.Xusanov b.f.n., dots. A.A.Imirsinova b.f.n., dots. F.M.To'xtaboyeva PhD. Sh.Tashbayev PhD. G'.G'ulomov PhD. I.I.Muhammedov
05.00.00 – Texnika fanlari	PhD. B.Azimov
06.00.00 – Qishloq xo'jaligi fanlari	PhD. F.Yuldashev
07.00.00 – Tarix fanlari	t.f.d., prof. B.M.Rasulov t.f.d., dots. S.Hoshimov
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlari	i.f.n., dots. D.Nurmatov
09.00.00 – Falsafa fanlari	PhD. X.Xolmirzayev
10.00.00 – Filologiya fanlari	f.f.d., prof. B.Raxmonov PhD. U.B.Raxmonov
11.00.00 – Geografiya fanlari	g.f..d., dots. A.Isayev PhD. T.Zokirov
13.00.00 – Pedagogika fanlari	PhD. U.T.Shoabduraximova PhD. A.Abdullayeva
19.00.00 – Psixologiya fanlari	p.f.d. prof. M.Xalimova



Rasmiy sayt: www.universaljurnal.uz



Telegram manzil: https://t.me/universal_jurnal

© Jurnalda berilgan materiallarning mazmuni va xaqoniyligiga mualliflarning o'zlari javobgardirlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidandavlat ro'yxatidan o'tkazish raqami: № 245196



"UZ-DONGJU PAINT COMPANY" QK MISOLIDA KOMPANIYALARNING AYLANMA MABLAG‘LARINI MOLIYALASHTIRISH

Bekzod Abdugapparov

*O‘zbekiston Respublikasi Bank Moliya Akademiyasi, Biznesni boshqarish moliya va
moliya texnologiyalari yo‘nalishi magistranti*

ANNOTATSIYA.

Maqola haqida ma’lumot
Qabul qilingan: 03.05.2024
Qayta qabul : 06.05.2024
Saytda mavjud : 6.05.2024

Muallif (lar)

B.Abdugapparov

Ushbu maqolada korxonaning asosiy iqtisodiy toifalaridan biri – aylanma mablag‘lar tushunchasi va mohiyati ochib berish maqsad qilib olingan. Aylanma mablag‘larga berilgan turli tariflar tahlillar ilmiy maqolalardan foydalanildi. Maqolada asosan Soliyev Dilmurod Jamolovichning maqolasi asosida tahlil qilindi. Aylanma mablag‘larni boshqarishning maqsad va vazifalari aniqlanadi.



Muallif bilan aloqa
<https://orcid.org/0009-0000-6651-2429>

mu1234@gmail.com

© Muallif. B.Abdugapparov
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma’lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to‘g‘ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko‘rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

KEY WORDS:

aylanma mablag‘lar, joriy aktivlar, aktivlarni boshqarish, korxonaning moliyaviy holati, samaradorlik, rentabellik.

Abstract: This article aims to reveal the concept and essence of one of the main economic categories of the enterprise - working capital. Scientific articles were used to analyze various rates of working capital. The article mainly analyzed based on the article of Dilmurod Jamolovich Soliyev. The goals and objectives of working capital management are defined.

Key words: working capital, current assets, asset management, financial condition of the enterprise, efficiency, profitability.

Аннотация: Целью данной статьи является раскрытие понятия и сущности одной из основных экономических категорий предприятия - оборотного капитала. В научных статьях анализировались различные нормы оборотного капитала. Статья в основном проанализирована на основе статьи Дилмурода Джамоловича Солиева. Определены цели и задачи управления оборотным капиталом.

Ключевые слова: оборотный капитал, оборотные средства, управление активами, финансовое состояние предприятия, эффективность, рентабельность.

KIRISH (INTRODUCTION)

Doimiy o'zgaruvchan muhit va o'sib borayotgan raqobat tufayli kompaniyalar tobora ko'proq jarayonlarni optimallashtirishga, samaradorlikni oshirishga hamda resurslarni tejash yo'llarini izlashga majbur bo'lmoqdalar. Biznesni boshqarish sohasiga borgan sari yuqori talablar va vazifalar qo'yilmoqda. Agar kompaniya raqobatbardosh bo'lishni va o'zgaruvchan

biznes muhitiga moslashishni istasa, u eng yaxshi natijalarga erishishi kerak.

METODLAR (METHODS)

Bugungi kundagi kompaniyalari doimiy ravishda o'z pozitsiyalarini baholashga va kelajakdagi voqealarni bashorat qilishga majbur bo'lmoqdalar, buning uchun ular yuqori maqsadlarga erishish uchun strategik rejalarni ishlab chiqishlari va ushbu reja asosida o'z faoliyatlarini tashkillashtirishlari talab etiladi bu o'z navbatda strategik maqsadlar olib boradi. Maqsadlarga erishish muvaffaqiyati (strategik, taktik va operatsion) nazorat asosidagi faoliyati bilan qo'llab-quvvatlanishi mumkin. Rejalashtirish va qaror qabul qilish uchun to'g'ri va dolzarb ma'lumotlarga ega bo'lish muhimdir, ammo ular hozirda korxonalar uchun mavjud bo'lmasligi mumkin. Noto'g'ri yoki yetishmayotgan ma'lumotlar kompaniyaning maqsadlarini samarali boshqarish va ularga erishishni qiyinlashtiradi.

NATIJALAR (RESULTS)

Ko'p hollarda yuqori sifatli, o'z vaqtida va ishonchli ma'lumotlarni olish muammoli hamda ko'pincha qimmatga tushadi. Ushbu ma'lumotni olish xarajatlari undan kelib chiqadigan oqibatlardan oshmasligi kerak. Respublikamizda qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ham yuqoridagi keltirilgan mulohazalarga misol bo'la oladi, yana shunisi e'tiborliki

strategiyaning uchinchi yo'nalishida iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va barqarorligini ta'minlash ustuvor vazifalar etib belgilanganligidir. Bu o'z navbatida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan sanoat korxonalariga chet el sarmoyalarini keng ko'lamda jalb etishni taqozo etadi. Buning uchun mamlakatda hisob tizimini shaffoflashtirish, korxonalar joriy aktivlari hisobini tashkil etish, ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirishni ilg'or jahon tajribasi hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida tashkil bugungi kuni dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

MUXOKAMA (DISCUSSIONS)

Mazkur yo'nalishlarida hukumatimiz tomonidan bir qator qonun hujjatlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bularga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, 2022-yil 6-iyundagi PQ-271-sonli "Hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish va ularni muhandislikkommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 19-apreldagi PQ-212-sonli "Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, va boshqa qonun hujjatlarini misol qilib keltirish mumkin.

Demak har bir kompaniya aylanma mablag'larning maqbul miqdoriga ega bo'lishi eng optimal yechim sifatida qaralishi lozim.

Aylanma mablag'larning yuqori miqdori bilan eng samarali foydalanish mumkin bo'lgan va katta miqdordagi foyda keltirishi kerak bo'lgan aktivlar tushunilishi kerak. Shu bilan birgalikda ortiqcha aylanma kapital qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqarishini yaxshi anglashimiz kerak bo'ladi. Yana shuni unutmaslik kerakki aktivlarning aks ta'sirga egaligini ya'ni, ularning past darajasida operatsion faoliyatning uzluksiz faoliyati xavf ostida qoldirishi mumkin.

Uning optimal hajmini aniqlash uchun nazorat faoliyatidan foydalanish va zaxiralar, debitorlik va qisqa muddatli moliyaviy aktivlarni samarali boshqarish zarur. Aylanma mablag'larni faol boshqarish kompaniyaning balans qiymatini oshirishning samarali usuli hisoblanadi. Mablag'larning tez chiqarilishi, doimiy ravishda past va barqaror zaxiralar va kapital xarajatlar aylanma mablag'larni yaxshi boshqarish natijasidir. Korxonaning ravnaqi hamda yuksalishi va yaxshi ko'rsatkichlariga erishish aylanma mablag'larni samarali boshqarish bilan bog'liqdir. Ushbu sohani ko'pincha kompaniya rahbariyati e'tiborsiz qoldiradi, garchi u odatda investitsiya qilingan kapitalning umumiy qiymatining muhim qismini tashkil etsa ham, bu tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

XULOSALAR (CONCLUSION)

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, kompaniyaning aylanma mablag'larini boshqarishning samarali mexanizmini

yaratish uchun ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha choratadbirlar dasturini ishlab chiqish kerak degan xulosaga kelishimiz mumkin: moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni moddiy resurslar bilan ritmik va uzluksiz ta'minlash uchun moddiytexnik ta'minot tizimini tashkil etish darajasini oshirish; ishlab chiqarishni jadallashtirish orqali operatsion sikl davomiyligini qisqartirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyat jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni

amalga oshirish kerak; mehnat unumdorligi darajasini oshirish, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan, mehnat, moddiy resurslardan va boshqalardan to'liq foydalanish.; debitorlik qarzlari qayta moliyalashtirishning istiqbolli shakllaridan, pul aktivlarining o'rtacha qoldig'ini tartibga solishning samarali shakllaridan foydalanish, debitorlik qarzlari va pul oqimlari ustidan aniq nazorat tizimlarini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference List)

1. Abduvaxidov F.T., Qo'ziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik. — T.: TDIU, 2019. — 403 b.
2. Ahmadjonovich, S. D. (2021). Examples Of Business Management Development And Implementation Of International Standards. The American journal of management and economics innovations, 3(06), 40-44.
3. Buxgalteriya hisobi nazariyasi [Matn] : darslik. T. Toshmamatov. — Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2019. — 376 bet.
4. Soliyev Dilmurod Jamolovich. Aylanma mablag'larni samarali boshqarish korxonalar farovonligining asosidir. Scienceproblems.uz. № 3 (3)-2023.



ILDIZNING HOSIL BO'LISHIDA FITOGORMONLARNING AHAMIYATI

Odina Ismailova., Feruza Tuxtaboeva., Musharraf Xoshimjonova.

Andijon davlat universiteti

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 10.05.2024
Qayta qabul : 16.05.2024
Saytda mavjud : 20.05.2024

Muallif (lar)
O. Ismailova
F. Tuxtaboeva
***M. Xoshimjonova**

Muallif bilan aloqa



<https://orcid.org/0009-0006-4507-5817>

xoshimjonovamusharraf@gmail.com

© **Muallif. O. Ismailova va boshqalar**
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

ANNOTATSIYA.

Bugungi kunda biologiya fanining muammolaridan biri bo'lgan aholini sifatli va tabiiy oziq-ovqat mahsulotlari, qayta tiklanuvchi yoqilg'i bilan ta'minlash maqsadida qator davlatlarda bir qancha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, biotexnologiyaning rivojlanishi insonlar hayotini yaxshilash uchun katta ahamiyat kasb etmoqda. Bir qancha olimlar tomonidan inson hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'simliklarning yangi navi yaratilmoqda hamda ularni ko'paytirishning bir qancha usullari amalga oshirilmoqda. Bunday usullardan biri sifatida o'simliklarni in vitro sharoitida mikroklonal ko'paytirish ham muhim ro'l o'ynamoqda. Bu usul yordamida o'simlikning meristema hujayralari hisobiga yil davomida yangi o'simlik yaratish imkonini beradi. Bu usulda maxsus moddalar qatorida fitogormonlarning qatnashishi muhim ahamiyatga ega. O'simlik uchun juda ham oz miqdorda kerak bo'ladigan, lekin juda zarur jarayonlarni amalga oshiruvchi bu fitogormonlarga asosan abstsiz kislotasi, brassinosteroidlar, etilen, jasmonatlar, salitsil kislotasi, strigolaktonlar, auksin, sitokinin, gibberellin va bir qancha gormonlar kiradi. Ular o'simlikning ildizi, poyasi, bargi kabi organlarni hosil bo'lishida qatnashadi.

KALIT SO'ZLAR:

in vitro, mikroklonal, fitogormon, auksin, sitokinin, gibberellin, abstsiz kislotasi, brassinosteroidlar, etilen, jasmonatlar, salitsil kislotasi, strigolakton.

Abstract: In order to provide the population with high-quality and natural food products, renewable fuel, which is one of the problems of biological science today, several effective works are being carried out in a number of countries. In particular, the development of biotechnology is gaining great importance for improving people's lives. A number of scientists are creating new varieties of plants that are important for human life, and several methods of their reproduction are being implemented. Microclonal propagation of plants in vitro is playing an important role as one of these methods. With the help of this method, it is possible to create a new plant throughout the year at the expense of the meristem cells of the plant. The participation of phytohormones among special substances in this method is important. These phytohormones, which are needed in very small quantities for the plant, but carry out very necessary processes, mainly include abscisic acid, brassinosteroids, ethylene, jasmonates, salicylic acid, strigolactones, auxin, cytokinin, gibberellin and several hormones. They participate in the formation of plant organs such as roots, stems, and leaves.

Key words: in vitro, microclonal, phytohormone, auxin, cytokinin, gibberellin, abscisic acid, brassinosteroids, ethylene, jasmonates, salicylic acid, strigolactone.

Аннотация: Для обеспечения населения качественными и натуральными продуктами питания, возобновляемым топливом, что сегодня является одной из задач биологической науки, в ряде стран проводится ряд эффективных работ. В частности, большое значение для улучшения жизни людей приобретает развитие биотехнологий. Ряд ученых создают новые сорта растений, важных для жизни человека, и реализуют несколько способов их размножения. Важную роль в качестве одного из таких методов играет микроклональное размножение растений in vitro. С помощью этого метода можно в

течение года создавать новое растение за счет меристемных клеток растения. Важное значение в этом методе принадлежит участию фитогормонов среди особых веществ. К этим фитогормонам, которые нужны растению в очень малых количествах, но осуществляют весьма необходимые процессы, относятся главным образом абсцизовая кислота, брассиностероиды, этилен, жасмонаты, салициловая кислота, стриголактоны, ауксин, цитокинин, гиббереллин и некоторые гормоны. Они участвуют в формировании органов растения, таких как корни, стебли и листья.

Ключевые слова: in vitro, микроклонал, фитогормон, ауксин, цитокинин, гиббереллин, абсцизовая кислота, брассиностероиды, этилен, жасмонаты, салициловая кислота, стриголактон.

KIRISH

Ko'p hujayrali organizmlarning hayot faoliyati bir qator regulyator (boshqaruvchi) sistemalarning o'zaro munosabati natijasida boshqarilib turadi. Bu sistemaga hujayra, to'qima, organ va yaxlit organizmni boshqaruvchi regulyatorlar gruppasi kiradi. Bunday murakkab boshqarish sistemasini uzaro bir-biriga bog'lashda xuddi xayvonlardagidek yuksak o'simliklarda ham, gormonlar xususiyatiga ega bo'lgan birikmalar muhim ahamiyatga ega buladi. O'simliklarning butun hayoti, ya'ni urug'langan tuxum hujayraning rivojlanishidan to organizm qarishigacha bo'lgan barcha proseslar fitogormonlar ishtirokida borishi har tomonlama o'rganilgan. Fitogormonlarga, ya'ni o'stiruvchi moddalarga o'simliklarning o'sish processi regulyasiyasida qatnashadigan birqator organik

birikmalar kiradi. Bu birikmalarga xos bulgan asosiy xususiyatlar quyidagilardir. Avvalo, fitogormonlar o'simliklarning yosh bargida, poya yoki ildizining o'suvchi qismlarida hosil bo'lib, ularning boshqa qismlariga, ya'ni o'sish prodeslari aktiv bo'lgan joylarga ko'chiriladi; ikkinchidan, fitogormonlar o'simliklarda juda ham kam miqdorda hosil bo'ladi va juda past konsentrasiyada ta'sir ko'rsatadi; uchinchidan, fitogormonlarning ta'siri biron-bir kimyoviy jarayonni tezlatish bilan chegaralanmay, balki ular bir qator kimyoviy jarayonlarni boshqarishda ishtirok etadi.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'simliklarning o'sishi murakkab tuzilishga ega dinamik jarayondir (Moulton va boshq., 2020b), bunda gormonal dinamika bilan tartibga solinadigan hujayra darajasidagi o'sish mexanizmlari (Ubeda-Tomás va boshq., 2012 , Tanimoto, 2005) organ darajasiga olib keladi. o'sish (Gregori, 2008) va keng miqyosda butun ildiz tizimlarining rivojlanayotgan arxitekturasi va morfologiyasiga (Clausnitzer and Hopmans, 1994 , Landl va boshqalar, 2019 , Jin va boshq., 2020) ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni bunda o'simlikda ildiz hosil bo'lishi uchun meristema hujayrasi bo'linib butun boshli organ (ildiz)ni hosil qiladi. o'simlikning ildizlari uning yer usti biomassasini tuproqqa birlashtirish va mustahkamlash uchun mo'ljallangan va o'simlikning optimal salomatligi va rivojlanishi uchun suv, ozuqa moddalar va minerallarni to'playdi (Fageria, 2012). Bundan tashqari, u ozuqa moddalarining aylanishiga yordam beradi (Hobbi, 2015), tuproq agregatsiyasi va tuzilishini ta'minlash uchun tuproqdagi mikrobial jamoalarning dinamikasini o'zgartiradi (Prasad va boshq., 2021) va uglerod sekvestratsiyasi (Kumar va boshq., 2006). PGPR ning ildiz xususiyatlariga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar uning sog'lom ildiz va

rizosferani rivojlantirish va ta'minlashdagi muhim rolini aniqladi (Erturk va boshq., 2010). Ildiz xususiyatlarining abiotik omillarga va boshqa turlar bilan biotik o'zaro ta'siriga javobi juda moslashuvchan (Koevoets va boshq., 2016). Bu turlar ichida va o'rtasida ildiz tuzilishi va arxitekturasini (RSA) o'zgartiradi (Saleem va boshq., 2018a). Demak, o'simliklar RSAga ta'sir qiluvchi tashqi muhit omillari ta'siriga moyil bo'ladi (Schenk, 2006). Bunday sharoitda PGPRlar ildiz rivojlanishini, sog'lig'ini yaxshilash va ildiz mikro-muhitini optimal holatda ta'minlash va saqlash orqali o'simliklarga sezilarli darajada yordam beradi va shu bilan o'simliklarning sog'lig'i va mahsuldorligini ta'minlaydi (Grover va boshq., 2021; Valdez-Nuñez va boshq. , 2019).[2]

METODOLOGIYASI

Oksinlar uzoq vaqtdan beri o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi jarayonlarining deyarli barcha jihatlarini, jumladan apikal ustunlik, poyaning o'sishi, lateral ildiz (LR) shakllanishi, fototropizm va gravitropizmni modulyatsiya qiluvchi eng muhim o'simlik gormonlari sifatida tan olindi. Oksinlar o'zlarining biologik funksiyalarini asosan auksin-induktsiyali genlarning transkript darajasini modulyatsiya qilish orqali bajaradilar. Auxin ubiquitinga bog'liq proteolitik orqali *Arabidopsis thaliana*'da auksinga javob beruvchi gen ekspressiyasini boshqaradi.[3 Characterization of Auxin Metabolism in the Ovaries of the Lychee (*Litchi chinensis*) 'Salathiel' 2022, Horticulture Journal]

Auksinlarning o'simliklarga ko'rsatadigan ta'siri nuklein kislotalar, oqsillar va fermentlar, murakkab

uglevodlar hosil bulishi bilan bog'liq. Ammo bunday bog'lanish xarakteri va sintezlanayotgan fermentlarning tabiati aniqlangan emas.[4]

Auksinlar fermentlar aktivligining boshqarilishida ishtirok etishi mumkin, deb taxmin qilinadi. Auksinlarning fermentlar aktivligiga kursatadigan ta'siri bevosita ularning uchlamchi va turtlamchi strukturasi uzgartirish tufayli, yo bo'lmasa, hujayralardagi lipoproteid birikmalarga hamda poliferment sistemalarga ta'sir etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'simliklar tarkibida auksinlar erkin va bog'langan holda uchraydi. Lekin faqat erkin holdagi auksinlar ularning o'sishiga ta'sir etadi. O'simliklar tarkibidagi erkin getero-auksin peroksidaza, feioloksidaza yoki auksinoksidaza fermenti ta'sirida oksidlanish yo'li bilan parchalanadi.[5]

NATIJALAR

Strigolaktonlar (SL) o'simlik ildizining o'sishi va rivojlanishini boshqaruvchi fitogormonlar vazifasini bajaradigan hayotiy rizosfera signallari. 12 kunlik tadqiqotdan so'ng, sintetik SL analog GR24 nozik ildizning sonini va zichligini sezilarli darajada ko'paydi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, GR24 ning turli konsentratsiyasi lateral ildiz (LR) boshlanishiga qarama-qarshi ta'sir ko'rsatdi. 10 mkM TIS108 (SL ning triazol tipidagi inhibitori) ga o'xshash yuqori konsentratsiyali (10 mkM) GR24 LR boshlanishi uchun ijobiy regulyator bo'lib xizmat qildi, GR24 ning past konsentratsiyasi (0,1 mkM) bilan davolash esa LR zichligini sezilarli darajada kamaytirdi. Bundan tashqari, ildiz uzunligi va sirt maydoni 10 mkl GR24 bilan ishlov berish natijasida nazorat bilan solishtirganda sezilarli darajada oshdi. 0,1 mkM GR24, 10 mkM GR24 va 10 mkM TIS108, 4534, 5022 va 3803 differensial ifodalangan genlar (DEG) bilan ishlov berilgan ildiz namunalarida nazorat bilan solishtirganda aniqlandi. RNK-Seq natijalari bir nechta DEGlarni ajratib ko'rsatdi,

masalan *ARF*, *EBF*, *ERF*, *CYCA1* va *LOB* kabi bir nechta DEGlarni ajratib ko'rsatdi, ular gormon signalizatsiyasi, hujayra aylanishi va uzumzorlarda ildiz o'sishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. UPLC-MS tahlili shuni ko'rsatdiki, SL qo'llanilishi endogen gormonlar darajasini sezilarli darajada o'zgartirgan. Xususan, 10 mkl TIS108 bilan ishlov berilgan uzum ildizlaridagi indol-3-sirka kislotasi (IAA) miqdori nazoratdagiga qaraganda taxminan 4,78 baravar yuqori bo'lgan, 0,1 mkl yoki 10 mkl GR24 bilan ishlov berishdan keyin esa buning aksi. Bizning tadqiqotimiz boshqa fitohormon signalizatsiyasi bilan o'zaro ta'sir qilish natijasida yuzaga keladigan SLlarning uzum ildizining rivojlanishiga ta'sirining birinchi keng qamrovli tavsifini beradi va uzumzorlarda ildiz o'sishi va rivojlanishini tartibga solish uchun SLlardan foydalanish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. *Scientia Horticulturae* Boshqa fitogormon signalizatsiyasi bilan o'zaro ta'sir qilish orqali uzum ildizining rivojlanishida ishtirok etadigan strigolaktonlarning ta'siri ostida yotgan molekulyar mexanizmlar isbotini topdi. [6]

MUHOKAMA

O'simliklarning ildizining hosil bo'lishida fitogormonlarning (ildiz hosil qiluvchi fitogormonlar xususan, auksin)ning salbiy va ijobiy tomonlari. Cho'zilish zonasida auksin hujayralarining o'sishini jadallashtiradi. Ildizga yetib kelgan auksin uning o'sishini va morfogenezi boshqaradi, ya'ni kichik konsentratsiyalarda hujayralarning bo'linishi va cho'zilishini tezlashtiradi. Ildizlardagi auksinning miqdori ortib ketisa, uning apeksidagi hujayralarning bo'linishi va o'sishi

to'xtaydi, ammo yon ildizlarning hosil bo'lishi kuchayadi. Yangi, yosh barglarning rivojlanishi tufayli auksin miqdorining oshishiga, bu esa yon ildizlarning hosil bo'lishiga olib keladi. Ildizning apikal meristemalarida sitokinin (zeatin) sintezlana boshlaydi.[7]

Auksin gormoni sitoplazmadagi o'z retseptorlari orqali sitoplazmadagi to'rsimon endoplazmatik retikulumga ta'sir qiladi, ya'ni plazmalemma H⁺-pompasini (H⁺-ATFaza), sitoplazmadagi oqsil sintezini va yadrodagi RNK sintezini faollashtiradi. Buning natijasida hujayra devorida oqsillar, polisaxaridlar va fermentlarning ajralishi ro'y berib hujayra devori nisbatan yumshaydi. Yumshagan hujayra devori esa uning ichki osmotik bosimi natijasida cho'ziladi. Auksinning o'sishni tezlashtirishi maxsus RNK va oqsillar sintezi tufayli qo'llab turiladi. Ildizdan o'simlikning yer ustki qismlariga gibberellin ham keladi. keyinchalik gibberellin shakllanayotgan barglarda sintez bo'la

boshlaydi. Sitokinin va gibberellin o'z navbatida auksinning sintezi va tashiluvini faollashtiradi.[8]

XULOSA

O'simlik ildizining hosil bo'lishida bo'linish zonasida joylashgan hujayralar tarkibidagi bir qator moddalar qatorida fitogormonlarning ham ahamiyati katta. Ular turli xil o'simliklarda turlicha vaqtda ildiz tizimini hosil qilishda ishtirok etadi. Masalan uzumda o'rtacha 12 kunda ildizlar hosil bo'la boshlaydi. Pomidorda esa bir qancha ertaroq 6-7 kunda murtakdagi boshlang'ich ildiz jadallik bilan o'sib borishi kuzatildi.

Fitogormonlar o'simlik organizmi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan fiziologik faol moddalar bo'lib, organlarining hosil bo'lishi, o'sishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference List)

1. Science direct sayti <https://www.sciencedirect.com/>
2. B. O. Beknazarov "O'simliklar fiziologiyasi" 337-b
3. The regulatory signaling of gibberellin metabolism and its crosstalk with phytohormones in response to plant abiotic stresses Research article
4. SITIR1 is involved in crosstalk of phytohormones, regulates auxin-induced root growth and stimulates stenopermocarpic fruit formation in tomato Plant Science December 2016
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Fitogormonlar>
6. <https://kutubxona.samduuf.uz/download/2852>



**BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI DARS JARAYONLARIDA
MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA
ULARNING FOYDALI TOMONLARI**

Zoxidova Gulchexra Ergashboy Qizi

**Andijon viloyati Andijon tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi
5-hudud 2-uchastka kompleks ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodim**

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 11.05.2024
Qayta qabul : 16.05.2024
Saytda mavjud : 20.05.2024

Muallif (lar)
G.E.Zoxidova



Muallif bilan aloqa
<https://orcid.org/0009-0004-3493-6680>



gulchexrazoxidova96@mail.com

© Muallif. G.E.Zoxidova
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Maxfiylik bayonoti
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limdagi o'quvchilariga sifatli ta'lim berish va o'qitishda multimedia vositalari va texnologiyalaridan foydalanish va ularning foydali natijalari haqida fikr yuritiladi hamda multimedia vositalaridan foydalanish, o'quvchilarda mashqlarga nisbatan ishonch va darsga bo'lgan qiziqishlari ortishiga ham yordam beradi.

KEY WORDS:

multimedia, axborotni yetkazish tezligi, musiqa, dars, slayd, o'quv material, zamonaviy pedagog, kommunikativlik.

Abstract: this article reflects on the use of multimedia tools and technologies in providing quality education and training to primary school students and their beneficial results, and the use of multimedia tools, increasing students' confidence in exercises and interest in the lesson also helps.

Key words: multimedia, speed of information delivery, music, lesson, slide, educational material, modern pedagogy, communicative.

Аннотация: В данной статье размышляется об использовании мультимедийных средств и технологий в обеспечении качественного образования и обучения учащихся начальных классов и их полезных результатах, а также помогает использование мультимедийных средств, повышающее уверенность учащихся в упражнениях и интерес к уроку.

Ключевые слова: мультимедиа, скорость подачи информации, музыка, урок, слайд, учебный материал, современный педагог, коммуникатив.

KIRISH (INTRODUCTION)

Hozirgi kunda rivojlanayotgan zamonda boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida kompyuter va turli zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim tizimida ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim sifatini oshirish uchta eng asosiy tarmoqlarni birdek takomillashuviga

bog'liq bo'lib, umumta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish, o'quv metodik adabiyotlar bilan boyitish, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanishdan iborat. Zamonamizda o'quvchilarni yangiliklar, g'royibotlar, ilg'or xalqaro tajribalar qiziqtiradi.

METODLAR (METHODS)

Multimedia kompyuterning matn, grafik, tovushli va videoma'lumotlar bilan ishlashga imkon beruvchi qurilmasi. Ana shunday qurilma o'rnatilgan kompyuter multimedia kompyuter deyiladi. Hozirda deyarli barcha kompyuterlar multimedia qurilmalar bilan ta'minlangan. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi. Buning uchun kichik maktab yoshidagi tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda ta'limning zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham

unumli foydalanish, kompyuter savodxonligini shakllantirish, internet bo'yicha ilk elementar tushunchalar berish lozim bo'ladi.

NATIJARLAR (RESULTS)

Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini qiziqarli, asosiy va zarur foydali bilimlarga boy jarayon sifatida o'tish ishlari sezilarli darajada e'tiborni torta oldi. Bu sinflarda multimedia vositalarining o'рни va foydasini ko'rib chiqish juda muhimdir. Audio va video darsliklar ma'lumotlarni ko'rish va ko'rsatish masalalari, ularni idrok etish va analiz-sintez qiladigan, ilg'orlashishga undovchi, maqsadli va aniq jarayonlarni yodda tutish uchun ham yordam beradi. Bu turdagi qo'llanmalar o'quvchilarning ma'lumot olish va ularni samarali yodda saqlash tezligini oshirishda juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Audio va videodarsliklar tarix, ona tili, matematika, ingliz tili va boshqa fanlarni qamrab olishi va boshqa ko'plab mavzulardan ham iborat bo'lishi mumkin. Interaktiv darsliklar interaktiv materiallar va mashqlarning asosiy qatlami bo'lib, har tomonlama ilg'orlashishga, ularni qo'llash orqali o'quvchilar bilan

o'zaro savol-javoblar doirasida turli interaktiv metodlar orqali mantiqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu darsliklar, o'quvchilar o'zlarining shaxsiy jihat va fazilatlarini rivojlantirishida juda kuchli vosita hisoblanishi mumkin. Ular o'yinlar, savollar, testlar va boshqa mashg'ulotlardan iborat bo'ladi. Saytlar, mavzu va fanlar bilan bog'liq turli ko'rinishlar va formatlarga ega bo'lib, bir va ko'p mavzularda ko'proq bilim olish, amalda qo'llash va ko'nikmalar yaratish imkoniyatini tuhfa etadi. O'qishni ko'rsatish masalalari, tushuncha, misollar va boshqa mavzularni shuhratli yechimlarga aylantirish va ularga ko'rsatish qaror qilish oqibatida, sinflarda va boshqalarda saytlarning maqsadi ko'pincha tajribaviy bilim olishdir. O'yinlar fikrlararo almashinish va ko'rishni, shaxsiy qarashlarga ega bo'lishni, miya faoliyatini yaxshilashni amalga oshirishda juda muhim hisoblanadi.

MUXOKAMA (DISCUSSIONS)

Har qanday multimedia darsliklari, boshlang'ich sinflardagi o'quvchi zavqlari, o'quvchilar ko'nikmalarida yaratilgan odatlar va sinfning maqsadi asosida tanlangan vaqtlarda ishlatiladi. Xuddi shu tarzda, o'quvchilarni ko'proq qiziqishlariga yoki talablarga rioya etishlariga, sinflarda ko'tarilish va sinfdan chiqarilishidagi yondashuvlarida muammolarga duch kelmaslikka olib keladi. Multimedia vositalarining boshqa turlari mavzu va fanlar bilan bog'liq. Qurilmalarni ishlatish maqsadida tanlash esa o'qitish usullariga bog'liq bo'ladi. Har qanday multimedia vositalari kelajakda o'quvchilarga talabchanlik va faollik kabilarni jalb qilish va bilimlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Darsda ko'rgazmali vositalardan ko'proq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki bugungi kunda bolalarni qoyil qoldirish ancha mushkul. Shuning uchun zamonaviy pedagog tinib-tinchimasligi, innovatsion, noan'anaviy, interaktiv dars usullarini muntazam o'qib va o'rganib borishi hamda o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiiq eta olishi zarur. O'quvchilar bitta

dars davomida ham ko'rsin, ham tinglasin, ham gapirsin, ham mushohada qilsin, ham yozsin.

XULOSALAR (CONCLUSION)

Multimedia vositalari yordamida olib borilgan faoliyat bolaning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini va bilim olish saviyasini oshiradi. Multimedia vositalari bolaga yakka tartibda yondashish imkonini beradi. Tarbiyachining bevosita ishtirokisiz ham bolalar materialni o'zlashtirishi mumkin bo'ladi. Hozirda multimedia kundalik faoliyatimizda juda ko'p ishlatilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasida multimedia texnologiyalarini tatbiq etish uchun yuqorida berilgan fikrlarini umumlashtirib multimediyaga shunday ta'rif berish mumkin. Multimedia-bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari yordamida axborotning an'anaviy va orginal turlari asosida o'quv materiallarini tinglovchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference List)

1. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov, "Ta'limda innovatsiyar" T;. Istedod –2010
2. Axmedova M.Zufarov "Boshlang'ich ta'lim o'qitish metodikasi".-T.: O'zbekiston.
3. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot–kommunikativ kompetentligini rivojlanish komponentlar, N Saidova, Science and innovation, 865-868
4. Qurbonova Maftuna, Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish ahamiyati // Xalq ta'limi, 2020. 3-maxsus son, 29-33 bet.



**ANDIJON MARKAZ VA VEXA BUG'DOY NAVLARI
URUG'LARINI LABORATORIYA SHAROITIDA TUZLAR
TA'SIRIGA CHIDAMLILIGINI ANIQLASH**

M.R.Axmedova., F.M.Tuxtaboyeva

Andijon davlat universiteti

ANNOTATSIYA.

Sug'oriladigan dehqonchilik yerlarida tuproqlarning sho'rlanishi asosiy ekologik muammolardan hisoblanadi. Tuproqlarning sho'rlanishi sug'orishni noto'g'ri olib borganda yer osti suvlari sathining ko'tarilishi natijasida ro'y beradi. Birlamchi va ikkilamchi sho'rlanish kuzatiladi. Ikkilamchi sho'rlanishda suv kapilyarlar orqali ko'tarilib tuzi tuproqda qoladi yoki ortiqcha sug'orish natijasida yer osti suvlari erigan tuzlar bilan sho'rlanadi. Hozirgi kunda sho'rlanishni oldini olish qishloq xo'jaligining dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Bug'doy ekinlarini sho'rlanishga chidamli navlarini yaratish, tuproq unumdorligini oshirish kabi masalalar yuzasidan ko'plab ilmiy ishlar olib borilmoqda.

KALIT SO'ZLAR:

kuzgi va bahorgi bug'doy, oqsil, kleykovina, sho'rlanish, tuzlar, tuproq, ildiz.

Maqola haqida ma'lumot

Qabul qilingan: 11.05.2024

Qayta qabul : 17.05.2024

Saytda mavjud : 22.05.2024

Muallif (lar)

M.R.Axmedova

***F. Tuxtaboeva**

Muallif bilan aloqa



<https://orcid.org/0009-0006-4507-5817>

xoshimjonovamusharraf@gmail.com

© Muallif. M.R.Axmedova va boshqalar

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Abstract: Soil salinity in irrigated agricultural lands is one of the main environmental problems. Soil salinization occurs as a result of the rise of the underground water level during improper irrigation. Primary and secondary salinity is observed. In secondary salinization, water rises through capillaries and remains in the salt soil, or as a result of excessive irrigation, groundwater is salted with dissolved salts. Nowadays, prevention of salinity is one of the urgent problems of agriculture. Many scientific works are being carried out on issues such as creating salinity-resistant varieties of wheat crops and increasing soil fertility.

Key words: winter and spring wheat, protein, gluten, salinity, salts, soil, roots.

Засоление почв на орошаемых сельскохозяйственных угодьях является одной из основных экологических проблем. Засоление почвы происходит в результате подъема уровня грунтовых вод при неправильном поливе. Наблюдается первичное и вторичное засоление. При вторичном засолении вода поднимается по капиллярам и остается в засоленной почве или в результате чрезмерного орошения грунтовые воды засаливаются растворенными солями. В настоящее время предотвращение засоления является одной из актуальных проблем сельского хозяйства. Многие научные работы проводятся по таким вопросам, как создание засолеустойчивых сортов пшеницы и повышение плодородия почв.

Ключевые слова: озимая и яровая пшеница, белок, клейковина, засоленность, соли, почва, корни.

KIRISH

Yer yuzidagi insonlarning ko'pchiligi bug'doy o'simligining donini asosiy oziq-ovqat sifatida foydalanadi va birinchi non sifatida qadrlaydi. Bug'doy insoniyat uchun eng muhim oziq-ovqat ekini hisoblanadi va yer shari aholisining asosiy qismi (70%) bug'doy unidan tayyorlangan mahsulotlarni iste'mol qiladi.

Bug'doydan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari mazali, to'yimli, yaxshi hazm bo'ladi. Bug'doy donidan un, undan xilma-xil oziq-ovqat mahsulotlari: non, shirin kulcha, makaron, yorma, pechenya, bolalar ovqati, konditer mahsulotlari, spirt va boshqalar olinadi. Bug'doy uni hech qachon hech kimni ko'ngliga urmaydi, inson o'ziga kerakli kuch va quvvatni nondan oladi, organizm uchun zarur vitaminlar B1, B2, PP va kalsiy, temir va fosfor ham nonda bo'ladi [1].

Bug'doy donidan kraxmal, dekstrin olinadi, somoni, qipiqdari chorva molar uchun ozuqa sifatida foydalaniladi. 100 kg doni 117; 100 kg somoni 30 ozuqa birligi saqlaydi. Somonidan dag'al xashak, senaj tayyorlanadi, Bundan tashqari somonidan sifatli qog'ozlar, savat va shlyapalar tayyorlashda, qurilishda ishlatiladi. Bug'doy donida 11-20% oqsil 65-75% kraxmal, 2% yog' va shuncha miqdorda yog'ochlik va kul bo'ladi. Bug'doy tarkibidagi eng muhim ko'rsatkich oqsil va kleykovinadir.

Bug'doy doni tarkibidagi oqsil miqdoriga qarab foydalaniladi, oqsil miqdori o'ta kam bo'lsa 11 - 13%

chorva mollariga ozuqa, 14- 15% non, 17-18% makaron tayyorlanadi [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida O'zbekistonda bug'doyni o'rganish yakunlariga ko'ra, rigid shaklli bug'doylar, asosan, nam bilan kam va yarim ta'minlangan lalmi yerlarda, spelta bug'doyi esa tog'oldi va tog'li mintaqalarda tarqalgan. Sug'oriladigan yerlarda ham faqat dag'al boshli shakllar uchirashi aniqlangan. (G.A.Lavronov, 1969).

Sug'oriladigan yerlarda o'stiriladigan bug'doy shimoliy-yarim kuzgi va janubiy-bahori guruhlariga bo'lingan. Mahalliy bug'doy navlari tez pishirilishi va o'suv davrining so'ngida issiqlikka talabchanligi bilan xarakterlangan.

Tabiiy iqlim sharoitidan kelib chiqib, mahalliy bug'doy navlarida issiqlikka chidamlilik xususiyatlari kuchli darajada shakllangan. Bug'doyning ushbu xususiyati ildiz tizimining baquvvat o'sishi, tuproqqa 200-220 sm chuqurlikka kirib borishi bilan belgilanadi. Mahalliy bug'doy navlari nam yetarli bo'lganda kuzqish oylaridagi past haroratlarda ham fotosintez jarayonining faolligi bilan xarakterlangan. Hayot tarzi biologik bahori bo'lgan mahalliy bug'doy navlarining ko'pchilik qismi va ular asosida yaratilgan seleksion navlar duvarak (ikki faslli) bo'lib, bahorgi va kuzgi ekish muddatlarida ham yaxshi hosil beradi. Duvarak bug'doy navlarining ekilgan urug'lari kuzda unib chiqqanda ham sovuqqa yuqori chidamlilikka ega bo'ladi. Bug'doyning yarim kuzgi navlari respublikaning faqat shimoliy mintaqalarida juda kam maydonlarda ekilgan. Lalmi yerlarda bug'doyning kuzgi navlari duvarak va

bahori navlarga nisbatan 20-30% kam hosil beradi. Bug'doyning don sifati bahorda ekilganda ortadi, kuzda ekilganda esa pasayadi. Bug'doy sun'iy sug'orilganda ham don tarkibidagi oqsil va kleykovina miqdori kamayadi. [3,4,5].

Mahalliy navlarda qisqa (yarim kuzgi bug'doy 25-30 kun, duvarak 7-12 kun, bahori 2-7 kun) yarovizasiya davrini o'tishi kuzatiladi. N.I.Vavilov madaniy o'simliklarning kelib chiqishi bo'yicha O'zbekistonni O'rta Osiyo Markazining asosi deb hisoblaydi hamda 42 xromosomal yumshoq bug'doy (*T. aestivum*)ning 44 ta tur xilini va ularning geografik jihatdan tarqalishini aniqlaydi (N.I.Vavilov, 1966). N.V.Pokrovskiy (1930) O'zbekiston hududida yumshoq bug'doyning 44 ta tur xiliga ega navlarni to'plaganligi ushbu ma'lumotni yana bir bor isbot etdi. [3].

Respublikada hozirgi kunda yumshoq bug'doy (*Triticum aestivum* L) ning 53 ta navi, qattiq bug'doy (*T. durum*) ning 8 ta navi ekishga tavsiya etilgan. Shundan 17 ta nav xorijdan keltirilgan navlar hisoblanadi. Chetdan keltirilgan navlarning hosildorligi, don sifati, sovuqqa, kasalliklarga chidamliligi yuqori, lekin navlar ushbu xususiyatlarini O'zbekistonning noqulay tuproq-iqlim sharoitlarida to'liq namoyon etolmayapti. Ular mahalliy tuproq-iqlim sharoitining turli noqulay omillaridan, ayniqsa issiqlikdan katta zarar ko'rmoqda.

Sug'oriladigan dehqonchilik yerlarida tuproqlarning sho'rlanishi asosiy ekologik muammolardan hisoblanadi. Tuproqlarning

sho'rlanishi sug'orishni noto'g'ri olib borganda yer osti suvlari sathining ko'tarilishi natijasida ro'y beradi. Birlamchi va ikkilamchi sho'rlanish kuzatiladi. Ikkilamchi sho'rlanishda suv kappilyarlar orqali ko'tarilib tuzi tuproqda qoladi yoki ortiqcha sug'orish natijasida yer osti suvlari erigan tuzlar bilan sho'rlanadi. Ikkilamchi sho'rlanish ko'proq zarar yetkazadi. Tuproqlarning sho'rlanishi Osiyo, Amerika va Afrikaning ko'pchilik mamlakatlarida kuzatiladi. Sho'rlanishning oldini olish uchun zovurlar qaziladi, yerlarning sho'ri yuviladi [1, 2, 4, 5].

METODOLOGIYA

Sho'rlangan tuproqlar iqlimi issiq va quruq bo'lgan mintaqalarda ko'proq bo'lib, natriy, kalsiy va magniylarning xloridli, sulfat va karbonatli tuzlari shaklida uchraydi. Sho'r tuproqlar anionlarning nisbatiga ko'ra xlorid-sulfatli, sulfat-xloridli, xloridli, sulfatli, karbonatli (sodali) bo'lishi mo'mkin. Bunday tuproqlarda asosiy kationlar natriy va kalsiy bo'lib, magniy-karbonat va magniy-xloridlar ham uchrab turadi. Bu tuzlardan natriy karbonat (Na_2CO_3) va natriy gidrokarbonat (NaHCO_3) o'simliklarga ko'proq zararli ta'sir etadi.

O'simliklarning sho'rlikka chidamliligi va hosildorligini oshirish maqsadida bir qancha usullar taklif etilgan: — ekin maydonlaridagi tuproqlarni yuvish va tuzdan tozalash, buning uchun drenaj va zovurlardan keng foydalanish, yerlarning melioratsiya holatini yaxshilash; — ekin maydonlarining unumdorligini oshirish, buning uchun asosiy o'gitlar bilan bir qatorda mikroo'gitlardan foydalanish; — O'simliklarning xlorli sho'rlikka chidamliligini oshirish maqsadida ekishdan oldin urug'larga ishlov berish, buning

uchun ularni osh tuzining (NaCl) 3-6 foizli eritmasida bir soat saqlab, keyin ularni 1,5 soat davomida yuvish va ekish (P.A.Genkel tavsiya etgan); — sho'rlikka nisbatan chidamli navlarni tanlash va ulardan foydalanish; — o'simliklarning sulfat sho'rlanishga chidamliligini oshirish uchun urug'larni ekishdan oldin magniy sulfat (MgSO_4) tuzining 0,2 foizli yoki marganes sulfat (MnSO_4) tuzining 0,25 foizli eritmasida bir kechakunduz ivitish. [1, 3, 6]


Havo haroratining haddan tashqari ko'tarilishi tufayli tuproq yuzasidan suvlarning bug'lanishi ortadi va natijada tuproq yuza qismida tuzlarning to'planishi kuzatiladi. Buning oqibatida unib chiqqan bug'doy ko'chatlari tezda katta qiyinchiliklarga duch keladi ayniqsa, dalaning sho'rlangan yerlarida ko'chatlarning barchasi nobud bo'lishi tufayli bug'doy maydonlarida ochiq o'simliksiz maydonlar yoki sho'rga chidamli galofitlar o'sgan maydonlar paydo bo'ladi. Yuqoridagi muammolarni bartaraf qilish uchun tuproqning sho'rlanishiga chidamli bo'lgan erta pishar yangi bug'doy navlarini yaratish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi [3, 4,5,6].

MUHOKAMA

O'simliklarning xlorli sho'rlikka chidamliligini oshirish maqsadida ekishdan oldin urug'larga ishlov berish, buning uchun ularni osh tuzining (NaCl) 3-6 foizli eritmasida bir soat saqlab, keyin ularni 1,5 soat davomida yuvish va ekish (P.A.Genkel va va boshsalar tavsiya etgan);

Tajriba o'tkazishdan oldin hamma bug'doy urug'larini yaxshilab tozalab katta-kichikligi bir xilda bo'lishi va kurtaklarning o'suvchanligi 95% dan kam bo'lmasligi kerak. Tajribalarni o'tkazish davomida kurtaklarning o'sish jarayonida fiziologik va morfologik holatini qandaydir o'zgarishlarni kuzatib borish zarur. Sho'rga chidamliligini aniqlash maqsadida tajriba o'tkaziladigan bug'doy urug'lari yaxshilab saralab olamiz va urug'larni chashka petriga 50 donadan sanab joylashtiriladi. Bug'doy urug'larini sho'rga chidamliligini aniqlashda jami tajribaga har bir navdan 150-200 dona bug'doy urug' navlari saralab olinib, 50 donadan chashka petriga taqsimlab chiqiladi. Tanlab olingan bug'doy navlarini magniy hamda xlorli tuzlarga chidamliligini aniqlash uchun NaCl ning 3%li va 6%li eritmasi hamda magniy sulfatning 0,25 % foizli

eritmasidan foydalaniladi. Barchasiga teng taqsimlangan bug'doy navlariga har biriga alohida 10 ml dan nazorat uchun disstillangan suv, NaCl ning 3%li va 6 %li eritmasi va $MgSO_4$ 0,25 % foizli eritmasidan quyiladi. 3 kun davomida bug'doylar unib chiqqunga qadar har kuni tajriba uchun olingan bug'doylarga 10 ml dan suvdan quyiladi. 3 kundan so'ng ularni olib filtr qog'oziga o'raladi va ichi yarim suvga to'ldirilgan idishga solinadi. 5-7-9 kunlarda bug'doylar olinadi hamda unuvchanligi va ildiz tizimining o'sish ko'rsatlichlari kuzatiladi. Unib chiqayotgan bug'doylar nazorat variantiga taqqoslab unuvchanligi hamda eritma uchun olingan tuzlarga chidamli ekanligi aniqlanadi.




1-rasm. Andijon markaz va Vexa navlarining $MgSO_4$ tuzlari ta'siridagi 9 kunlik unuvchanligi

NATIJALAR.

Laboratoriya sharoitidagi olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlariga quyidagicha baho beriladi, ya'ni unib chiqqan bug'doy urug'larini sanab olamiz foizi 0-25% gacha bo'lsa chidamsiz, 26-

50% bo'lsa gacha o'rtacha chidamli, 50-75 % bo'lsa chidamli, agarda 75-100 % gacha bo'lsa yuqori chidamli hisoblanadi. Biz bu natijalarni diagramma orqali ko'rishimiz mumkin:



XULOSA. Biz o'rgangan bug'doyning Andijon markaz hamda Vexa navlarining NaCl ning 3%li va 6 %li eritmasi va MgSO4 0,25 % foizli eritmalari asosida o'tkazgan tajribalarimizdan ma'lum bo'ldiki, bu navlar tuzlar

ta'siridagi kam miqdordagi sho'rlangan tuproqlarga chidamli hisoblanadi. Agar sho'rlanish miqdori yuqorilab ketsa o'simlik urug'lanining nobud bo'lishi ortib borishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference List)

1. J.X.Xo'jaev "O'simliklar fiziologiyasi" 2004.Tuproq sho'rlanishi va uning O'simliklarga ta'siri.Sho'rga chidamlilik bet 208-210.
2. B.Beknazarov "O'simliklar fiziologiyasi" Toshkent 1999.b-535.
3. O'serbayeva T, Qutibaeva E. "Bug'doyning morfologiyasi, biologiyasi ham agrotexnikasi". N.: Qaraqalpog'iston 2006.-40 b.
4. F.M. To'xtaboyeva, D.S.To'ychiyeva, L.K.Yunusova, G'.Sh. G'ulomov "O'simliklar fiziologiyasi" Toshkent -2022 201 b
5. R.N, Ibrohimova "Bug'doyning ayrim navlari urug'larida biokimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash". Bitiruv malakaviy ishi 2023 yil
6. Тухтабаева, Ф. М., Абдутолипов, М. З., & Хашимджанова, М. Н. (2019). Действие УДП железа и ферростимулятора на амилотическую активность семян хлопчатника. In Вестник научных конференций (No. 6-2, pp. 125-126). ООО Консалтинговая компания Юком.



EKOLOGIYA VA ATROF MUHITGA INSONNING
TA'SIRI

Rahimova Hilolaxon Rustamjonovna
Xabibullayev Ne'matillo Ubaydullayevich

Central Asian Medical University

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 20.05.2024
Qayta qabul : 22.05.2024
Saytda mavjud : 23.05.2024

Muallif (lar)
*H.R.Rahimova
N.U. Xabibullayev

Muallif bilan aloqa



<https://orcid.org/0009-0005-5281-0851>



hilolaxon.rahimzoda.87@bk.ru

© Muallif. H.R.Rahimova va boshqalar

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi dolzarb muammo atrof muhit va tabiatga korsatilayotgan moddiy zararlar, va inson orni bunda qanchalik ekanligi ko'rsatilgan. Shuningdek hozirgi kunda atrof muhitni muhofaza qilish global muammo bolib turganligi sabablari uni oldini olish keltirilgan.

Kalit so'zlar: Energetika, Atmosfera, Yoqilg'i, ishlab chiqarish, Atom elektr stansiyalari, sanoat, neft, ekologik muammolar, ozon qatlami.

Аннотация: В данной статье показано, что актуальной проблемой современности является материальный ущерб окружающей среде и природе, а также роль человека в этом. Также приведены причины, по которым охрана окружающей среды сегодня является глобальной проблемой и ее предотвращение.

Ключевые слова: Энергетика, Атмосфера, Топливо, производство, Атомные электростанции, промышленность, нефть, экологические проблемы, озоновый слой.

Annotation: This article shows that today's actual problem is material damage to the environment and nature, and the role of humans in it. Also, the reasons why environmental protection is a global problem today and its prevention are given.

Key words: Energy, Atmosphere, Fuel, production, Nuclear power plants, industry, oil, ecological problems, ozone layer.

Atrof muhitni muhofaza qilish, hozirgi kunda bu masala hammani birdek o'ziga jalb qilib kelmoqda. Atmosferani ifloslantiruvchi chiqindilar odatda ikki qismga bo'linadi: gazzimon va qattiq moddalar, shundan gazli moddalar butun chiqindilarning 80%, qattiq moddalar 10%, va qolgan ulushi boshqa sohalarga to'g'ri keladi. Atmosferani ifloslantiruvchi manbalarni tabiiy va sun'iy jarayonlar tashkil qiladi. Tabiiy manbalarga chang, changto'zon, vulqonlarning otilishi va boshqalarga xos. Tabiatning inson va jamiyat uchun ahamiyati juda katta va turli-tumandir. Uni inson ehtiyojini qondirish jihatlariga qarab, iqtisodiy, ilmiy, sog'lomlashtirish, tarbiyaviy va estetik kabi ahamiyatlarini farqlash mumkin.

Iqtisodiy ahamiyati deyilganda undagi resurslardan (havo, tuproq, minerallar, o'simlik va hayvonlar) turli ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishda asosiy moddiy manba sifatida foydalanish tushuniladi.

Ilmiy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, insonning barcha bilimlari negizida tabiat va undagi turli jarayonlarni kuzatish, o'rganish, tahlil etish va amaliy xulosalar qilish yotadi.

Sog'lomlashtirish ahamiyati deyilganda sof tabiiy unsurlar (musaffo havo, toza suv, unumdor tuproq, bahavo o'rmon)ning va shifo beruvchi tabiiy modda va jarayonlarning inson salomatligiga ijobiy ta'siri tushuniladi.

So'nggi yillarda olimlar atmosferaning ozon qatlamining yupqalashib, yemirilib borayotganini ta'kidlashmoqdalar. Ozon qatlami ultrirabinafsha nurlarning zararli ta'siridan tirik jonzotlarni himoya qiladi. Bu jarayon ayniqsa sayyoramiz qutblarida tez kechmoqda. U yerda "Ozon tuynigi" hosil bo'lishi kutilmoqda.

Umumsayyoraviy ekologik muammolar sifatida aholining shiddatli tarzda tartibsiz ko'payib borishi xomashyo va energetik resurslarning kamayib borayotganligi, havo, suv, tuproqlarning ifloslanishi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aytib o'tish mumkin.

Shuningdek, Ozon tuynigi, havo tarkibida CO miqdorining oshib borishi, yerda o'rtacha haroratning ortib borishi kabi hollarini ham umumbashariy ekologik muammolar guruhiga kiritish mumkin.

Mintaqaviy ekologik muammolar ta'sir ko'Mamiga ko'ra sayyoramizning alohida hududlari yoki davlatlariga xos bo'lgan muammolardir. Masalan, Markaziy Osiyodagi Orol muammosi, Afrikaning ba'zi hududlaridagi qurg'oqchilik va qahatchilik, G'arbiy Yevropa va Amerikadagi ba'zi kuchli industrlashgan hududlarga xos muammolar mintaqaviy ekologik muammolardir.

Yuqoridagi fikrlarni qisqacha quyidagicha izohlash mumkin:

- insonlar o'zlarining turli ehtiyojlarini qondirish jarayonida tabiatga ta'sir o'tkazadilar;

- insonning tabiatga ta'siri boshqa tirik mavjudotlamikidan farqli o'laroq uning ongi tufayli boshqariladi;

- insonning tabiatga ongli ta'siri kuchayib borishi bilan tabiatda modda va energiya almashinuvining yangi, antropogen turi qaror topadi va u tabiatda kechadigan jarayonlarda sezilarli rol o'ynay boshlaydi;

- tabiatga inson ta'sirining kuchayishi va bu jarayonda tabiat va jamiyat qonuniyatlariga yetarli e'tibor bermaslik yoki ularning buzilishi oqibatida tabiat-jamiyat tizimida salbiy o'zgarishlar sodir bomadi. Bunday o'zgarishlar inson va jamiyatning hayotiy sharoitlarini og'irlashtiradi va turli ekologik muammolarni keltirib chiqaradi.

- insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida atrof-muhit holatini borgan sari yomonlashib borayotganligi tabiat va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarning kuchayib borayotganligi bilan izohlanadi;
- tabiat va jamiyatdagi salbiy

o'zgarishlarning oldini olish va bartaraf etish ko'p jihatdan har bir shaxs va jamiyat a'zolarining ekologik bilim darajasiga bog'liq. Shuning uchun ekologik ta'limni chuqurlashtirish hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Xulosa: Hozirgi kundagi dolzarb bo'lib kelayotgan muammolar, inson faoliyati natijasida bitta korxonada chiqindilari bilan atmosfera, daryo, ko'l ifloslanishi, o'rmonlar yo'qolib ketayotgani va hatto olimlar atmosferaning ozon qatlamining yupqalashib, yemirilib borayotganini ta'kidlashmoqdalar.

Bugungi kunda Sanoat, Iqtisodiyat jadal suratlar bilan rivojlanmoqda ammo ekologiya esa tobora zaiflashib bormoqda. Buni oldini olish maqsadida har bir inson ko'chat ekishi zarur ana shunda biz tabiatni kelajakka ishonib topshira olamiz. Atmosferani muhofaza qilish bu borada chiqindisiz va kam chiqindili ishlab chiqarish texnologiyasini qo'llash yuqori samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference List)

1. "Ekologiya o'quv qo'llanma", To'xtayev A.S Toshkent 1998 y.
2. "Umumiy ekologiya" darslik, A. Ergashev. Toshkent 2003 y.
3. "Ekologiya va atrof –muhitning muhofaza qilish asoslari", "Musiqqa" nashriyoti. P.S. Sulstonov. Toshkent 2007 y.
4. "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish o'quv qo'llanma", Xo'janazarov. O'. E. Yoqubjonov. SH. Toshkent 2018 y.



BOSHQARUV FAOLIYATI VA UNDAGI NIZOLAR PSIXOLOGIYASI

Burxonov Jasur Jahongir o'g'li

Toshkent shahri Puchon universiteti

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 24.05.2024
Qayta qabul : 24.05.2024
Saytda mavjud : 24.05.2024

Muallif (lar)
J.J.Burxonov

Muallif bilan aloqa



<https://orcid.org/0009-0005-2065-7362>



burxonovjasur57@gmail.com

© J.J.Burxonov

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

“Kishi qanchalik yuqori martabaga erishmasin,
u baribir kamtar bo'lib qolishi lozim”

Yusuf Xos Hojib.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiylashuv jarayonida turli rasmiy guruhlarda mehnat faoliyati jarayonida rahbar va xodim o'rtasidagi munosabatlarda nizoli vaziyatlar va ularni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Boshqaruv, lider, rahbar, liderlik uslublari, nizo, psixologik iqlim, nizoli vaziyatlar.

Abstract: In the process of socialization, thoughts are presented about conflict situations and psychological factors that cause them in the relationship between the manager and the employee in the process of working in different official groups.

Key words: Management, leader, manager, leadership styles, conflict, psychological climate, conflict situations.

Аннотация: В процессе социализации представлены мысли о конфликтных ситуациях и психологических факторах, вызывающих их во взаимоотношениях руководителя и работника в процессе работы в разных служебных группах.

Ключевые слова: Менеджмент, лидер, управленец, стили руководства, конфликт, психологический климат, конфликтные ситуации.

Globalashuv davrida dunyo miqyosida har qanday sohalarda ilg'or bo'lish rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallash ta'lim, ishlab chiqarish, madaniyat va san'atda yuksak marralarni zabt etish har bir davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan xisoblanadi. Bu borada rahbar faoliyati va uning boshqaruv uslubi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda rahbar shaxsi va uning boshqaruvdagi o'ziga xos xususiyatlari, rahbarning xodimlar bilan munosabatlari jamoa bilan samarali muloqot o'rnatish, jamoalarda yuz beradigan nizoli vaziyatlarni to'g'ri taxlil qilish hamda kelib chiqish sabablarini chuqur o'rganish bugungi kun psixolog va sotsiologlari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Yangi O'zbekistonda boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat rahbarimiz aytib o'tganidek: - "Samarali boshqaruv barqaror rivojlanishning barcha boshqa maqsadlariga erishishda tarmoqlararo va asosiy katalizatoridir"[1].

Psixologik iqlim jamoada ishchilar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri muloqot jarayonida yaratiladi va shaxslararo muloqotning sifat tomonini ifodalaydi, buning fonida guruh ehtiyojlari amalga oshiriladi. U gorizontal (hamkasblar o'rtasidagi) va vertikal (rahbar va bo'ysunuvchilar o'rtasidagi)

munosabatlarning xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir[2].

Jamoada qulay psixologik muhitni yaratishda yetakchi rolni rahbarning shaxsiyati va shaxslararo munosabatlarning tabiatiga ta'sir qilish qobiliyati o'ynaydi. Shu bilan birga, rahbarning birgalikdagi faoliyat shartlari bo'yicha shaxsiy strategiyasida ifodalangan pozitsiyasi uning shaxsiy etakchilik uslubining muhim xususiyatlarini aks ettiradi, bu uning ijodiy qobiliyatlarini, shaxsiy fazilatlarini, munosabatlarni birlashtirishga tayyorligini va shaklini ochib beradi.

Boshqaruv faoliyati va undagi nizolar psixologiyasi murakkab va ko'p qirrali soha bo'lib, unda rahbar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar, hamda tashkilot ichidagi nizolarni boshqarishning turli usullari o'rganiladi. Motivatsiya: Xodimlarning ishga bo'lgan qiziqishini va motivatsiyasini oshirish uchun turli strategiyalar qo'llaniladi. Bu strategiyalar orasida mukofotlash tizimi, karyeraviy o'sish imkoniyatlari va shaxsiy maqsadlarni tashkilot maqsadlari bilan uyg'unlashtirish kiradi.

Rahbarlik uslublari: Har xil rahbarlik uslublari (avtoritar,

demokratik, laissez-faire) xodimlarning ishga bo'lgan munosabatiga va ularning motivatsiyasiga ta'sir qiladi. Har bir uslubning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor.

Muloqot: Tashkilot ichida samarali muloqot o'rnatish juda muhimdir. Ochiq va samimiy muloqot muhitini yaratish xodimlar o'rtasida tushunmovchiliklarni kamaytiradi va hamkorlikni oshiradi.

Nizolar psixologiyasi Nizo turlari: Tashkilot ichida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar turli shakllarda bo'ladi: shaxsiy nizolar, guruhlar o'rtasidagi nizolar, va tashkilot darajasidagi nizolar.

Nizolarni aniqlash: Nizolarni erta bosqichlarda aniqlash va ularni to'g'ri baholash muhimdir. Bu, odatda, nizolarni tez va samarali hal qilish imkonini beradi.

Nizolarni boshqarish strategiyalari:

1. Murosaga kelish: Har ikki tomon ham o'zaro kelishuvga erishishga harakat

qiladi. 2. Himoyalash: Bir tomon nizoni kuch bilan hal qilishga harakat qiladi.

3. Muammolarni hal qilish: Nizoni asosiy sabablarini aniqlab, ularni hal qilishga yo'naltiriladi.

4. Yechim topish: Har ikki tomon uchun ham foydali bo'lgan yechimlarni topishga qaratilgan.

Stress boshqaruvi: Nizolar ko'pincha stressni oshiradi. Stressni boshqarish usullari xodimlarning salomatligi va samaradorligini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda boshqaruv faoliyati va undagi nizolarni samarali boshqarish uchun rahbarlar psixologiya va nizolarni boshqarish bo'yicha keng bilimga ega bo'lishlari zarur. Bu bilimlar tashkilot ichidagi muhitni yaxshilash va umumiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference List)

1. O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun taraqqiyot siyosatiga doir tadbirlarni har tomonlama joriy qilish, jadallashtirish va qo'llab-quvvatlash (MAPS) hisoboti (2018-yil 19-oktabr) [Elektron resurs] // URL: http://www.un.uz/files/UN%20in%20Uzbekistan/MAPS%20Report%-202018/UZB-MAPS%20Report%20-%20Final_Uzb.pdf (murojaat sanasi: 28.01.2020-yil)

2. Социальная психология: учеб. пособие / отв. ред. А.Л Журавлев. - М., 2002.

3. Словарь практического психолога / сост. С.Ю. Головин. - Минск, 1998.

4. Кашапов, М.М. Теория и практика решения конфликтных ситуаций. - М., 2003.
5. Abdulmadjidova, M. (2021). Muloqot–Bola Psixik Rivojlanishining Muhim Omili. BARQARORLIK VA YETAKCHI
6. Ziyomhammadov, B., & Abdullayeva, S. (2006). Pedagogy. Study guide. Tashkent, 40. TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 614-617.
7. Abdullaeva, S. H. (2014). Shaping to emotional stability future teachers of the professional education. European Journal of Natural History, (4), 23-24.
8. Khamidovna, A. S. The Role of a Psychologist in Creating a Learning Environment in Higher Education Institutions.
9. Абдуллаева, Ш. Х. (2021). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СТРЕССА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ:
10. Абдуллаева Шоира Хамидовна Ташкентский государственный университет Востоковедения, заведующий кафедрой педагогики и психологии, доктор психологических наук, доцент. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (5).
11. Khamidovna, A. S. (2018). The Study of the Emotional Stability of Secondary School Teachers—as a Component of Professional Competence. Archive, 75.
12. Абдуллаева, Ш. Х. (2016). КОММУНИКАТИВНЫЕ УМЕНИЯ КАК ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ ПЕДАГОГА. NovaInfo. Ru, 3(54), 304-306.
13. qizi Xabibullayeva, S. S., & qiz Abdulmadjidova, M. D. (2023, January). TEZKOR QAROR QABUL QILISH-HOZIRGI ZAMON MUHIM TALABI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 45-49).
14. Abdulmadjidova, M., & Sattarova, I. M. (2021). O'smirlar o'rtasidagi nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda hamkorlik masalalari. *Science and Education*, 2(12), 602-608.
15. Sattarova, I. M., & Abdulmadjidova, M. (2021). Ta'lim Jarayoni Samaradorligini Oshirishda O 'Yinli Texnologiyalardan Foydalanish Pedagogik Zaruriyat Sifatida. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 5-9.



TRIGONELLA FOENUM-GRAECUM DORIVOR O'SIMLIGINING O'SIB RIVOJLANISHIGA RIZOSFERA MIKROORGANIZMINING TA'SIRINI BAHOLASH

¹Azatov Farrux Rashid ugli., ¹Shukurov Otabek Jo'rabek o'g'li
²Xo`jamshukurov Nortoji Abduxalikovich., ²Otajonov Asadbek Shonazarovich

¹*O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti*
²*Toshkent kimyo-texnologiya instituti*

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 5.05.2024
Qayta qabul : 24.05.2024
Saytda mavjud : 24.05.2024

Muallif (lar)
Azatov F.R.
*Xo`jamshukurov N.A.
Otajonov A.Sh.
Shukurov O.J.

Muallif bilan aloqa



<https://orcid.org/0000-0001-7807-4737>



nkhujamshukurov@mail.ru

© Azatov F.R va boshqalar

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annotatsiya: Ushbu maqolada *Trigonella foenum-graecum* dorivor o'simligi turli xil ozuqa muhitlarida o'sish sharoitlari o'rganish natijalari keltirilgan. Tibbiyot tarmoqlari uchun kelajakda tabiiy dori vositalari tayyorlashda muhim xomashyo manbasi bo'lib xizmat qiladi. Respublikamizning turli hududlarida yetishtirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Kalit so'zlari: *Trigonella foenum-graecum*, DNK, RNK, ATR, Fosfor, tuproq, vitaminlar, fitogormonlar.

Аннотация: В статье представлены результаты изучения условий роста лекарственного растения *Trigonella foenum-graecum* на различных питательных средах. В будущем он послужит важным источником сырья для приготовления натуральных лекарств для медицинской промышленности. Можно будет выращивать в разных регионах нашей республики.

Ключевые слова: *Trigonella foenum-graecum*, ДНК, РНК, АТР, фосфор, почва, витамины, фитогормоны.

Abstract: This article presents the results of the study of the growth conditions of the medicinal plant *Trigonella foenum-graecum* in different nutrient media. It will serve as an important source of raw materials for the preparation of natural medicines for the medical industry in the future. It will be possible to grow in different regions of our republic.

Key words: *Trigonella foenum-graecum*, DNA, RNA, ATR, Phosphorus, soil, vitamins, phytohormones.

Mamlakatni oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash uchun o'simlik mahsulotlaridan yuqori va sifatli hosil olish, tuproq unumdorligini oshirish zarur. Qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirishning muhim shartlaridan biri o'simliklarni fosfor bilan ta'minlash darajasidir.

Fosfor-biosferaning o'ta muhim biogen elementi bo'lib, DNK, RNK, ATR, fosfolipidlar va ba'zi kofaktorlar sifatida makromolekulalar tarkibiga kiradi. Tuproqdagi noorganik fosforning yalpi zahiralari juda katta, ammo u o'simliklar uchun o'zlashtirilib bo'lmaydigan shaklda. Mineral o'g'itlardan olinadigan o'simliklarning moddalardan foydalanish darajasi juda past, ya'ni: fosfor (P)- atigi 15-20%, azot (N)- 50% va kaliy (K)- 60-70%. Tabiatda fosforning aylanishi bo'lmagani uchun va u hosil bilan birga tuproqdan olib chiqib ketiladi, shuning uchun tuproqdagi fosfor yetishmasligi faqat tegishli o'g'itlar kiritilganda tiklanishi mumkin.

Birlamchi minerallar tarkibida neytral yoki ishqoriy tuproqlarda fosfat kuchsiz eriydigan kalsiy fosfat va marganets, kislotali tuproqlarda temir va alyuminiy birikmalar tarkibida uchraydi. Fosfor o'simlik organizmlarida energiya almashinuvida juda muhim rol o'ynaydi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining fosfor bilan oziqlanishini yaxshilashning istiqbolli yo'nalishi tuproq mikroorganizmlari (*bakteriyalar, aktinomitsetlar, zamburug'lar*) yordamida biologik fosfat mobilizatsiyasi bo'lib, u tuproqdan va o'g'itlardan qiyin eriydigan fosfor birikmalarini yuqori o'simliklar uchun o'zlashtiriladigan shakllarga o'tkazishga yordam beradi.

Fosfat mobilizatsiya qiluvchi mikroorganizmlar- organik va noorganik fosfor birikmalarining erishi qiyin bo'lgan fosfatlarini o'simliklar uchun o'zlashtiriladigan shaklga aylantiradigan, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga

foydali ta'sir ko'rsatadigan mikroorganizmlar hisoblanadi. Mikroblarning foydali ta'siri, yana shundaki, ular mikroorganizmlarning boshqa foydali guruhlari: nitrifikatorlar va azot fiksatorlarning rivojlanishini faollashtiradi, buning natijasida azotning o'zlashtirilish foizi oshadi. Bu bir nechta sabablarga bog'liq: mikroorganizmlar tomonidan vitaminlar va fitogormonlarning chiqarilishi, ularning patogenlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi antibiotiklar ishlab chiqarilishi, mineral elementlarni o'simliklar uchun o'zlashtiriladigan shaklga o'tishi.

Shunday qilib, rizoferada yashovchi mikroorganizmlar orasida fosfatlarning qiyin eriydigan shakllarini mobilizatsiya qilishga qodir bo'lgan ko'plab bakteriyalar va zamburug'lar ma'lum.

Ular orasida bakteriyalarning quyidagi turlari keng tarqalgan: *Pseudomonas, Bacillus, Rhizobium, Enterobacter, Achromobacter, Agrobacterium, Micrococcus* va boshqalar. Organik fosfor birikmalari parchalash xususiyatiga ega, mikromitset avlodlaridan *Aspergillus, Rhizopus, Trichotecium, Alternaria*, drojji *Rhodotorula, Saccharomyces, Sandida, Nansenula*.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligida fosforli o'g'itlar yetishmasligini hisobga olib, tarkibida fosforning oson eriydigan shakllarini o'z ichiga olgan yuqori samarali bioo'g'itlarni yaratish va metabolitlar sintezini faollashtirish, azotfiksatsiyalovchi, fosfat erituvchi, o'sishni jadallashtiruvchi va fitopatogenlardan himoya qiluvchi mikroorganizmlar ishtirokida tuproqdagi mikrobiologik, biokimyoviy jarayonlarni faollashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish zarur.

Tadqiqot ob'yekti. *Trigonella foenum-graecum*, o'simlik ildizlari tomonidan azotning fiksatsiyasiga hissa qo'shadigan alfa-proteobakteriyalar sinfining *Rhodospirillaceae* oilasiga mansub bakteriyalar turiga mansub bo'lgan *Azospirillum*.

1. Mahalliy rizobakteriya shtammlarini ajratish va faol shtammlarni kislotaga hosil qilish xususiyati bo'yicha skrining qilish. Rizobakteriyalarni ajratib olishda tuproq mikrobiologiyasida umumiy qabul qilingan uslublardan foydalaniladi [1]. Rizosfera bakteriyalarini ajratishda Dobireyner Eshbi, GPA, Pikovskoy, Zaka va Men'kina oziqa muhitlaridan foydalaniladi [2-4]. Titrlanuvchi organik kislotalarning umumiy miqdorini aniqlashda A.I.Ermakov usulidan foydalaniladi [4]. Glyukoza va *NaCl* qo'shilgan peptonli oziqa muhitiga rizobakteriya kul'turalari ekiladi va 28° C haroratda turg'un o'stiriladi. Oziqa muhitidagi titrlanadigan organik kislotalarning umumiy miqdori dinamikada (1,3 5,7 va 10 kun) tekshiriladi.

2. Fosfat mobilizatsiya qiluvchi rizobakteriya shtammlarini morfo-fiziologik xususiyatlarini o'rganish va MALDI TOF mass-spektrometriya yordamida identifikatsiya qilish. Fosfor va kaliy parchalovchi rizobakteriyalarning faol kul'turalarining kultural-morfologik va fiziologik-biokimyoviy xususiyatlarini umumiy qabul qilingan usullar yordamida amalga oshiriladi [5]. Rizobakteriya faol kul'turalarini identifikatsiya qilishda MALDI TOF (MALDI TOF) mass-spektrometriya yordamida aniqlanadi. MALDI (*Matrix Assisted Laser Desorption/Ionization*)-matritsa va lazer nurlari yordamida moddalarning ionlashtirilishi. Bakteriyalarni aniqlash uchun Vitek MS (MALDI-TOF) oqsillar spektrometriyasini to'g'ridan-to'g'ri bakteriyalar hujayrasidan uzoq vaqt namuna tayyorlanmasdan aniqlanadi [6].

3. Faol rizobakteriya kulturalarining erishi qiyin bo'lgan tuproq fosfatlaridan R_2O_5 ni mobilizatsiya qilish xususiyatini o'rganish. Faol rizobakteriya kul'turalarining $Ca_3(PO)_2$ ni parchalash xususiyatini aniqlashda N.V.Sergeyeva usulidan foydalaniladi [7-8]. Rizobakteriya kul'turalari $Ca_3(PO)_2$ fosfor birikmasi qo'shilgan 100 ml suyuq peptonli oziqa muhitiga ekiladi va 30°C haroratda chayqatish uskunasi 200 x/g chayqatilib 8 kun davomida o'stiriladi. Eruvchan fosforning miqdori dinamika bo'yicha (2,4,8 kun) spektrofotometr qurilmasida aniqlanadi.

4. Rizobakteriya shtammlarining nordon fosfataza faolligini aniqlash. Rizobakteriyalar suyuq MPA oziqa muhitida 3 kun mobaynida 28° C temperaturada o'stiriladi. So'ng bakteriyalar suspenziyasi 6000 x/g da sentrifuga qilinadi. Bakteriyalarning kultural suyuqliklari nordon fosfataza faolligini aniqlash uchun ferment ekstrakti bo'lib xizmat qiladi. Kislotali fosfataza faolligini aniqlash raksiyon aralashmasi quyidagilardan iborat: 3,0 ml natriy atsetat bufer (500 mM, pH 5,0), 30 ml para-nitrofenil fosfat (65 mM), 0,1 ml $MgCl_2$ (10 mM). Fermentativ reaksiya raksiyon aralashmaga 1,0 ml ferment ekstrakti qo'shish bilan boshlanadi. Reaksiya aralashmasi 37°Cda 15 daqiqa davomida inkubatsiya qilinadi. Reaksiya 0,5 ml 1 M *NaOH* qo'shib to'xtatildi va hosil bo'lgan p-nitrofenil 405 nm da o'lchandi. Nazorat sifatida ferment qo'shilmagan raksiyon aralashma xizmat qildi. nordon fosfataza faolligi para-nitrofenolning kalibrlash egri chizig'i orqali aniqlandi [9].

5. Rizobakteriya shtammlarini suyuq oziqa muhitida o'stirish va turli xil temperatura va pH ko'rsatigichining ta'sirini o'rganish. Faol rizobakteriya

kul'turalarining o'sish faolligiga turli xil pH ko'rsatkichlari va haroratning ta'siri o'rganildi. Faol rizobakteriya kul'turalari 5, 7 va 9 pH ko'rsatkichli suyuq peptonli oziqa muhitida 5 kun maboynida 28°C haroratda turg'un o'stirildi. Faol rizobakteriya kul'turalari suyuq peptonli oziqa muhitida 5 kun maboynida 20°C, 30°C va 45°C haroratda turg'un o'stirildi. Hujayralar titri suyultirish usuli orqali aniqlandi.

6. Statistik tahlillar. Barcha laboratoriya tajribalari uch takrorda olib boriladi. Olingan natijalarni statistik tahlili St'yudent kriteriyasi asosida o'rtacha arifmetik qiymat, standart

chetlashish, ishonchlik intervallari aniqlandi. Analiz natijalari MS Excel 2010 va Statistica litsenzion dasturli standart paketlar yordamida hisoblandi. [10].

Tadqiqot ishida asosan *Trigonella foenum-graecum* dorivor o'simligining o'sish sharoitlari laboratoriya uslubida 3 xil bakterialar ta'sirida tadqiq qilindi. Natijada quyidagi laboratoriya analizlari natijasida dorivor o'simlikning o'sish dinamikasi aniqlandi. Ozuqa muhitlari tarkibi quyidagicha tashkil etildi.

1-jadval

№	Ozuqa muhiti tarkibi.	Miqdori
1	Kartoshka	400 gr
2	Distillangan suv	4 litr
3	Saxaroza	4gr
4	Glukoza	4gr
5	Kolba	8ta
6	Agar-agar	4,6gr
7	Avtoklav	30 daqiqa



1-rasm. *Trigonella foenum-graecum* dorivor o'simligining 3 xil ozuqa muhitlarida o'sish sharoiti.

2-jadval

Ekilgan urug'lar soni	O'sib chiqqan urug'lar soni	O'sib chiqqan urug'lar soni %	Ildizlar soni	Ildizlar uzunligi sm	Poya uzunligi sm
10 ta	10 ta	100 %	-	3	6,5
		100 %	-	2,8	5
		100 %	-	2,5	4,2
		100 %	-	3	5
		100 %	-	2,5	6,5
		100 %	-	3,5	5,5
		100 %	-	2,2	6
		100 %	-	2,9	7
		100 %	-	3	6,2
		100 %	-	3,5	7,5

Trigonella foenum-graecum dorivor o'simligining 3 xil ozuqa muhitlarida o'stirishda asosan turlich uzunlikdagi ildizlar tendebsiyasi mavjudligi tahlil qilindi. Shuning bilan bir qatorda poya uzunligi esa 5-7 kun

davomida termostatda 27-28⁰ C haroratda aniq o'lchamda aniqlab borildi. Aniq o'lcham asosida hisob kitoblar amalga oshirildi.

3-jadval

Ekilgan urug'lar soni	O'sib chiqqan urug'lar soni	O'sib chiqqan urug'lar soni %	Ildizlar soni	Ildizlar uzunligi sm	Poya uzunligi sm
10 ta	8 ta	80 %	-	2	4,2
		80 %	-	2,5	4
		80 %	-	2,5	5
		80 %	-	1,8	5,2
		80 %	-	2	5,2
		80 %	-	2	4,2
		80 %	-	1,2	5
		80 %	-	0	0,9

4-jadval

Ekilgan urug'lar soni	O'sib chiqqan urug'lar soni	O'sib chiqqan urug'lar soni %	Ildizlar soni	Ildizlar uzunligi sm	Poya uzunligi sm
10 ta	9 ta	90 %	-	4	6,5
		90 %	-	4	5
		90 %	-	3,2	6
		90 %	-	3	6
		90 %	-	4	6,8
		90 %	-	3,5	5
		90 %	-	3	4,5
		90 %	-	3,5	5,5
		90 %	-	2,5	5

Xulosa:

Trigonella foenum-graecum dorivor oʻsimligi turli xil ozuqa muhitlarida oʻsish sharoitlari ijobiy natijalar hosil qildi. Tibbiyot tarmoqlari uchun kelajakda tabiiy

dori vositalari tayyorlashda muhim xomashyo manbasi boʻlib xizmat qiladi. Respublikamizning turli hududlarida yetishtirish imkoniyati mavjud boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference List)

1. Zvyaginsev D.G. Metodi pochvennoy mikrobiologii i bioximii. // Moskva, 1991.- 350s.
2. SHilyaeva O.N., YAKovleva Z.M. Rasprostraneniye azospirill v pochvax Sibiri. // Mikrobiologiya.- 1988.- T. 57.- № 2.- S. 284-287.
3. Egorshina A.A., Xayrullin R.M., Lukʻyansev M.A., Kuramshina Z.M., Smirnova YU.V. Fosfat-mobilizuyushaya aktivnostʼ endofitnix shtammov *Bacillus subtilis* i ix vliyaniye na stepenʼ mikorizatsii korney pshenitsi. // Journal of Siberian Federal University. Biology.- 2, 2011.- № 4.- P. 172-182
4. Ermakov A.I. Metodi bioximicheskix issledovaniy rasteniy. // Leningrad, 1972.- S. 192-194.
5. Paul De Vos, George M.Garrityet el. Bergeyʼs manual of systematic bacteriology.- 2 edition.- VIII.- 2009.
6. Seng P., Rolain J., Fournier P.E., Scola B.L., Drancourt M., Raoult D. MALDI-TOF-mass spectrometry applications in clinical microbiology. // Future Microbioljgy.- 2010.- V. 5.- № 11.- P. 1733–1754.
7. Khujamshukurov, N. A., Abdutolibov, M. Z., Salomova, S. S., Kh, K. D., & Aliqulov, S. M. (2023). ORGANIC PRODUCTION-PROBLEMS AND THEIR SYSTEMIC SOLUTIONS. *Iqlimning davom etayotgan oʻzgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun agrobiologik xilma-xillikni oʻrganish, saqlash va barqaror foydalanish muammolari*, 750-759.
8. Nortoji, X., & Muxriddin, A. (2023). ORGANIK DEHQONCHILIKNI DUNYO MAMLAKATLARI VA RESPUBLIKAMIZDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 6), 92-97.



BOSHQARUVDA ZAMONAVIY RAXBAR IMIDJI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yulchiyeva Gullola Yuldashboy qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 24.05.2024
Qayta qabul : 24.05.2024
Saytda mavjud : 24.05.2024

Muallif (lar)
G.Y.Yulchiyeva

Muallif bilan aloqa



<https://orcid.org/0009-0005-2065-7362>



gullolaormonbekova@gmail.com

© G.Y.Yulchiyeva

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda zamonaviy rahbar shaxsiga qo'yiladigan psixologik talablar, bugungi zamonaviy rahbar imidji va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritildi.

Kalit so'zlar: imidj, geshtalt psixologiya, xulq psixologiyasi, "Men" konsepsiyasi, o'zlikni anglash, emotsional intellect, lider.

Annotation: In this article, the psychological requirements of a modern leader in New Uzbekistan, the image of a modern leader and its characteristics were discussed.

Key words: image, gestalt psychology, behavioral psychology, "I" concept, self-awareness, emotional intellect, leader.

Аннотация: В данной статье рассмотрены психологические требования современного лидера Нового Узбекистана, образ современного лидера и его характеристики.

Ключевые слова: имидж, гештальт-психология, поведенческая психология, концепция «Я», самосознание, эмоциональный интеллект, лидер.

Jamiyatda har qanday ijtimoiy mehnat jarayoni boshqaruvni talab etadi. Har qanday boshqaruv tizimi esa zamon talablariga mos ravishda takomillashib boradi. Yurtimizda bozor munosabatlariga o'tish jarayoni jadal sur'atlar kechayotgan ayni bir paytda o'z kasbining mutaxassisi bo'lgan, jahon tajribasida sinovdan o'tgan zamonaviy boshqaruv tizimlari haqida mukammal bilimga ega bo'lgan va ma'suliyatni qalbdan his qiladigan yosh raxbar kadrlarga talab ortib bormoqda.

Zamonaviy rahbar faoliyatida imidj qanday ahamiyatga ega? Imidj o'ziga hos psixologik hususiyatlari nimalardan iborat.

Imidj" (inglizcha-"obraz", "tasvir") atamasini dastlab 20-asrning 60-yillarida amerikaik iqtisodchi Bolduin ish samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida qo'llay boshlaydi.

Shu davrdan boshlab psixologik jihatdan asoslangan imidj ijtimoiy hamda siyosiy psixologlarning tadqiqot obyektiga aylandi. Uning asosiy vazifasi shaxs yoki ijtimoiy tuzilma xaqida bevosita va bilvosita vizul tasavvur uyg'otish hisoblanadi. Aniq dalillarga asoslangan tafakkur esa taassurotlar va tasavvurlar natijasida shakllanadi. Agar biz imidjga aniq psixologik mahsulot sifatida qaraydigan bo'lsak, u, ijtimoiy ustanovka, qimmatbaho streotip va urfga aylangan ramz kabi namoyon bo'ladi namoyon bo'ladi.

Imidjni shakllantirishning zamonaviy tamoyillari XIX-XX asrlarda ishlab chiqilgan g'oyalarga asoslangandir.

Psixologiyaning turli xil yo'nalish tarafdorlari imidjni shakllantirish borasida o'z tamoyillarini yaratadilar. Jumladan, xulq psixologiyasi maktabi vakillari shakllantirish jarayonga perseptiv operatsiyalarni o'zgartirish qabilidagi qarashni taklif etadilar.

Buning asosiy natijasi atrofdagilarning shaxs imidjini munosabat tarkibi sifatida qabul qilishi bilan ifodalanadi. Amerikalik tadqiqotchilar O.Konel, K.Daniyel verbal imidjni shakllantirishning aniq ko'rsatmasini berishgan: "Liderning nutqi, o'zini tutishi va yuz tuzilishi unga bo'ysunuvchilarning nutqidan farq qiladi. Nutqlar buyruq ko'rinishida ifoda etiladi. ...bo'ysunuvchilarga nisbatan past ohangda bo'ladi. Unda tanaffus ko'p bo'ladi" deyiladi.

F.Perlzning shaxsga oid nazariyasi va psixoterapevtik ta'sir tarafdorlari (geshtalterapiya) imidjni butun bir tizim sifatida, ya'ni unga qandaydir aniq va real narsaday qarashni ("shu yerda va hozir") hamda shakllantirishni taklif etadilar (figura va fonning mos kelishi).

Kognitiv psixologiya tarafdorlari esa, imidjni shakllantirish tamoyilini o'rgatuvchi strategiya (subyekt tomonidan anglab qilinadigan) sifatida taklif etishadi. Yana bir nazariyalardan biri "tanqislik nazariyasi" imidjning emosional ta'siri xususiyatlari asosida yaratilgan. "Maqsadli axborotning aniqligi, ayniqsa, defisit paytida intensiv tasavvurni yuzaga keltiradi. Bunday holda tasavvurni rag'batlantiruvchi ongning kompensatorlik mexanizmlari ishga tushadi... o'ylab oxiriga yetishning erkinlik darajasi ... mutaxassislar tomonidan qat'iy nazorat qilinadi

A.Panasyukning taklif etayotgan yondashuvda psixoanaliz usullariga asoslanganligini aytib o'tish mumkin. U imidjni qabul qilish ko'pincha ongsiz ravishda sodir bo'ladi deydi.

Imidj sohasidagi tadqiq qilinayotgan yo'nalishlardan yana biri o'z-o'zini anglash jarayoni bo'lib, u shaxsga xos xarakterning asosiy manbai hisobalanadi. Ayrim insonlarning doimo o'zligini anglashi va o'z vaqtida boshqa insonlarning o'z "Men"ini unutib qo'yishi bir qator tadqiqotlarga sabab bo'lib xizmat qildi.

A.Feningsteyn, M.Sherif hamda A.Bass xarakterning o'ziga xos jihati bo'lgan o'z-o'zini anglash jarayonini diagnostika qiluvchi so'rovnoma yaratdilar va uni "O'zlikni anglash" shkalasi deb nomladilar. Tahlil asosida o'zlikni anglashning bir qator aspektlari aniqlandi:

1. Shaxsiy o'zlikni anglash – o'zlikning haqiqiy hissiyotlariga diqqatni jalb etuvchi bandlardan iborat;
2. Oshkora o'zlikni anglash – o'zlikka ijtimoiy obyekt sifatida nazar tashlash;
3. Ijtimoiy xavf – jamiyat e'tibori natijasida insonning o'z-o'zini yo'qotib qo'yish hususiyatini aks ettiradi.

Aniq taxlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zlikni anglash aspektlarining bir – biridan farqi katta bo'lsa ham, ular o'zaro bog'liqdir. Bu uch aspektni anglab darajasiga ko'ra insonlar bir-biridan farqlanadilar.

“Men” tamoyili imidjni shakllantirishning muhim bosqichi sanaladi. Bu bosqichda shaxs o'zga shaxslarda yaxshi taassurot qoldirish texnologiyasini, o'zlikni anglash va borich qabul qilish, o'ziga hamda olamga ijobiy munosabatni shakllantirish va o'zligini sevishni o'rganadi.

“Men” tamoyilining o'zi nima?

“Men tamoyili – individning o'zi haqidagi tasavvurlari majmuasidir” – deydi R.Berns.

Blez Paskal imidj haqida insonlarga ta'sir ko'rsatishning 2 usuli bor deb yozadi: “ishontirish usuli” va “yoqish usuli”.

Barchamiz atrofdagilarning ko'zida yaxshiroq, professional, yoqimliroq bo'lishni xohlaymiz va butun ongli hayotimiz davomida shu yo'nalishda rivojlanishga harakat qilamiz.

Har doim ham ijobiy o'zgarishlar “Men” tomonidan qabul qilinmasligi mumkin. Ya'ni, B.Ji buni xuddi plastik xirurgiyadagi singari mijozning identifikatsiyasi bilan muammolarga duch kelinishi (“Men” endi “Men emas”), deb talqin qiladi. Muallif, imidjni ichki va tashqiga ajratadi: ichki imidjni moslashtirmasdan tashqi imidjni yaxshilab bo'lmaydi. B.Ji shaxsiy imidjni shakllantirish muammosini “Men – tamoyil” pozitsiyasi va psixologik komfort pozitsiyasidan turib tadqiq qiladi.

Zamonaviy rahbar imidji korporativ va ijtimoiy talablarning tez o'zgarishiga moslashishi, innovatsiyalarni qabul qilishi va xodimlarni ilhomlantiruvchi xususiyatlarga ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda samarali rahbarning asosiy atributlari quyidagilar:

1. Insoniy munosabatlar: Zamonaviy rahbar xodimlar bilan ishonchli va ochiq muloqotni qo'llab-quvvatlaydi. U xodimlarni tinglaydi, ularga fikr bildirish imkonini beradi va ularning hissiyotlarini hisobga oladi.

2. Moslashuvchanlik: Tez o'zgaruvchan biznes muhiti talablariga tezda javob bera olish va moslashish qobiliyati. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va yangiliklarga ochiq bo'lish muhimdir.

3. Raqamli savodxonlik: Zamonaviy texnologiyalar va raqamli asbob-uskunalarni yaxshi bilish. Raqamli transformatsiyani boshqarish va ilg'or texnologiyalardan foydalanish zarurati bor.

4. Jamoa tuzish va yetakchilik: Jamoani motivatsiya qilish, ularga ilhom bag'ishlash va o'z-o'zini boshqaruvchi guruhlarini shakllantirish qobiliyati. Bunda jamoaviy ishlarni muvofiqlashtirish va hamkorlikka urg'u berish kerak.

5. Etika va barqarorlik: Ochiqlik, halollik va ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'lish. Uzoq muddatli barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va ekologik masalalarga e'tibor qaratish.

6. Muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish: Muammolarni tahlil qilish va ularga ijodiy yondashish, tez va samarali qaror qabul qilish qobiliyati.

7. Emosional intellekt: O'z va boshqalarning hissiyotlarini anglash va boshqarish, empatiya va hissiy ongli bo'lish.

Barcha bu xususiyatlar zamonaviy rahbarning muvaffaqiyatli va samarali bo'lishiga hissa qo'shadi. Ular o'z jamoalari va tashkilotlari uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ularga rahbarlik qilishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa o'rnida bugungi kunda olib borilayotgan qator tadqiqotlarda imidjni o'zgartirish va talablarga moslashtirish masalasi “shaxsiy o'sish strategiyasi” sifatida qabul qilingan. Muhit qanchalik tez o'zgarsa, shaxsiy o'zgarishlarda ularning natijalari ham shunchalik darajada bo'lishi kerak. Shu bois, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida rahbar imidjini shakllantirishda kelajakdagi o'zgarishlarga ehtiyoj sezilib, jamiyatda madaniy o'zgarishlar bosqichi boshlanmoqda.

Yangi zamonaviy rahbarning imidji – bu san'atni qadrlovchi, “sog'lom yashash tarzi”ni olib boruvchi, oilali, vatanparvarlik tuyg'usiga ega, ommaviy ma'lumotli deganidir. Imidj nafaqat “omma fikri”ga mos kelishi, balki bu fikrni shakllantirishi ham kerak. Demakki, imidj yaratish strategiyasini dinamik jarayon sifatida tasavvur qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference List)

1. N. Boymurodov “Rahbar psixologiyasi”. – T. : “ Yangi asr avlodi ”, 2007.
2. M.Sharifxo’jayev, Yo.Abdullayev “ Menejment ” – T. : “ Mehnat ”, 2000.
3. O.Hayitov “Iqtisodiy psixologiya” – T. O’quv qo’llanma , 2009.
4. Soliev F. S. Determining the Pattern of Behavior of a Person in Social Relations by Using Visual Psychodiagnostic Methods //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. –2023. –T. 10. –No. 1. –C. 562-567.
5. Abdulmadjidova, M. (2021). Muloqot–Bola Psixik Rivojlanishining Muhim Omili. BARQARORLIK VA YETAKCHI
6. Ziyomhammadov, B., & Abdullayeva, S. (2006). Pedagogy. Study guide. Tashkent, 40.TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 1(6), 614-617.
7. Abdullaeva, S. H. (2014). Shaping to emotional stability future teachers of the professional education. European Journal of Natural History, (4), 23-24.
8. Khamidovna, A. S. The Role of a Psychologist in Creating a Learning Environment in Higher Education Institutions.
9. Абдуллаева, Ш. Х. (2021). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СТРЕССА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ:
10. Абдуллаева Шоира Хамидовна Ташкентский государственный университет Востоковедения, заведующий кафедрой педагогики и психологии, доктор психологических наук, доцент. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (5).
11. Khamidovna, A. S. (2018). The Study of the Emotional Stability of Secondary School Teachers—as a Component of Professional Competence. Archive, 75.
12. Абдуллаева, Ш. Х. (2016). КОММУНИКАТИВНЫЕ УМЕНИЯ КАК ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ ПЕДАГОГА. NovaInfo. Ru, 3(54), 304-306.
13. qizi Xabibullayeva, S. S., & qiz Abdulmadjidova, M. D. (2023, January). TEZKOR QAROR QABUL QILISH-HOZIRGI ZAMON MUHIM TALABI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 45-49).
14. Abdulmadjidova, M., & Sattarova, I. M. (2021). O’smirlar o’rtasidagi nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda hamkorlik masalalari. *Science and Education*, 2(12), 602-608.
15. Sattarova, I. M., & Abdulmadjidova, M. (2021). Ta’lim Jarayoni Samaradorligini Oshirishda O ‘Yinli Texnologiyalardan Foydalanish Pedagogik Zaruriyat Sifatida. *TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 1(6), 5-9.



OILAPARVARLIK FAZILATLARINING MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA YUKSALISHIDA OILANING O'RNI

Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna

Andijon davlat pedagogika instituti

Maqola haqida ma'lumot

Qabul qilingan: 24.05.2024

Qayta qabul : 24.05.2024

Saytda mavjud : 24.05.2024

Muallif (lar)

N.T.Tojiboyeva

Muallif bilan aloqa

<https://orcid.org/0009-0005-2065-7362>

nodirahontojiboyeva4@gmail.com



© **N.T.Tojiboyeva**

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy qadriyatlar va an'analar o'zbek oilalarida milliy qadriyatlar asosida sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bugungi kunda milliy qadriyatlar asosida o'zbek oilalarida farzandlarni tarbiyalash borasida yo'l qo'yilayotgan ayrim kamchiliklar to'g'risida mulohazalar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: Sog'lom avlod, milliy qadriyatlar, millat, tarbiya, ijtimoiy muhit, oila, urf-odatlar, nizoli vaziyatlar qarindosh-urug'chilik, shajaralar.

Abstract: In this article, family values and traditions in Uzbek families based on national values are discussed about the role and importance of the family in raising a healthy and well-rounded generation. Also, comments are made about some of the shortcomings in the upbringing of children in Uzbek families based on national values.

Key words: Healthy generation, national values, nation, upbringing, social environment, family, traditions, conflict situations, kinship, genealogy.

Аннотация: В данной статье рассматриваются семейные ценности и традиции в узбекских семьях, основанные на национальных ценностях, о роли и значении семьи в воспитании здорового и всесторонне развитого поколения. Также высказываются комментарии о некоторых недостатках в воспитании детей в узбекских семьях на основе национальных ценностей.

Ключевые слова: Здоровое поколение, национальные ценности, нация, воспитание, социальная среда, семья, традиции, конфликтные ситуации, родство, генеалогия.

Mustaqillik sharofati tufayli yurtimizda urf-odat va an'analarimizning jamiyatni birlashtiruvchi imkoniyatlaridan to'liqroq foydalanish uchun juda katta imkoniyatva yo'l ochib berdi. Jamiyat hayotidagi ulkan o'zgarishlar, televidiniya, radio va matbuotning mavqei kun sayin ortib borayotgani, bir qarashda urf-odat va an'analarni o'rganish masalalari zamonaviylashish jarayonlari komida qolayotgandan tuyulsa-da, ularning jamiyat hayotidagi, shaxs ma'naviyati va mafkurasining shakllanishidagi ahamiyati kamayayotgani yo'q. Albatta, urf-odat va an'analar hamda ma'rosimlar o'z vazifasini to'g'ri o'tashi uchun ular bevosita xalq tomonidan to'la e'tirof etilishi, kundalik turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan bo'lishi kerak. Shu sababli har bir jamiyat urf-odatlarining xalq orasiga yaxshi singib ketishidan manfaatdordir. An'ana va urf-odatlar tarixiy mazmunga ega, ya'ni moddiy turmush sharoiti ta'sirida yuzaga keladi, vaqt o'tgan sari ular barqarorlasha borib, ajdodlardan avlodlarga me'ros bo'lib qoladi. Buning uchun ular insoniyat hayotida qadriyatga aylanishi kerak. Zero, urf-odat, an'analar va marosimlar inson uchun qadriyatga aylanganda, uning hayotini boyitadi. SHu bois har qanday jamiyat, har qanday ijtimoiy tuzum ularga ehtiyoj sezadi, ular yordamida odamlar orasida o'zaro munosabatlar kengtus oladi, ahloqning muayyan qoida va mezonlari vujudga keladi.

Mustaqillik yillarida davlat va mamlakat miqyosida 9 ta rasmiy umumxalq bayramlari qaror topdi. Ular xalq va mamlakat tarixi, milliy mentalitet va ma'naviyat, darajalari puxta o'ylab joriy etilgan. Ushbu bayramlarni nishonlash yosh avlod tarbiyasida ona Vatanga bo'lgan mehrni mustahkamlaydi. Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan urf-odat, marosim va bayramlar milliy mafkuraning asosiy g'oyalarni singdirishda muhim omil bo'ladi.

Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ota-ona va farzandlarning o'zbekona munosabatlari o'zaro hamkorlik, farzandlarning taqdiri va kelajagi uchun qayg'urish, ularga g'amxo'rlik qilish hamisha oilaviy qadriyatlarining va udumlarning asosiy qoidalari bo'lib kelgan. Afsuski, o'tgan totalitar tuzum davrida bu qadriyatlarga jiddiy putur yetdi. SHajaralar unut bo'ldi, oilaviy hunarmandchilik va kasb-korni avlodddan-avlodga uzatish, oilaviy kasbiy ko'nikmalar unut bo'lishi uchun barcha choralar ko'rildi. Qarindosh-urug'ning bir xil kasbga ixlos qo'yishi "qarindosh-urug'chilik" tamg'asi ostida qoralandi. SHu tarzda jamiyatda oilalar va urug'larning an'anaviy kasbiy yoki ijtimoiy "o'rni" batamom yo'qolib ketishiga sal qoldi. Uning o'rniga urug'-aymoqchilik va oshnaog'aynigarchilikning ijtimoiy buzuk shakllari yuzaga kela boshladi. SHu bilan birga, qarindoshlarning o'zaro yordami ba'zi hollarda jamiyat taraqqiyotini sekinlashtirib qo'yadigan tayyorga ayyorlikka va tanish-bilishchilikka aylanib ketdi.

Shu boisdan, ozuqabop hasharot turlarini ozuqaviy qiymatiga ko'ra saralash, ularni sanoat asosida etishtirish texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalalarning to'laqonli ilmiy va amaliy asoslab berilishi kelgusida chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik tarmoqlarini tannarxi arzon, ishlab chiqarish jarayoni qulay, abiotik va biotik omillarga bog'liq bo'lmagan hamda ozuqaviy qiymati yuqori bo'lgan ozuqa emi bilan uzluksiz ta'minlash imkonini beradi. Shu sababli Tenebrio molitor lichinkasidan olingan yog'ni tahlil qilish dolzarb masalalarni hal qilishda muhim ob'ekt hisoblanadi.

Pseudomonas agar asosi Pseudomonas CN Agar bazasi ISO 11133/ISO 16266 standarti yordamida tayyorlangan:

№	Tarkibi	gram/litr
1.	Bakteriologik agar	13,0
2.	Pepton	16,0
3.	Naliditsik kislota	0,015
4.	Kaliy sulfat (K ₂ SO ₄)	10,0
5.	Cetrimide	0,2
6.	Magniy xlorid (MgCl ₂)	1,4
7.	Gidrolizlangan kazein	10,0

Yakuniy pH qiymati 25 ° C da 7,1± 0,2

Ushbu ISO 11133/ISO 16266 standart ozuqa muhit sifatini ta'minlash bilan bog'liq shartlarni belgilaydi, shuningdek, oziq-ovqat, hayvon yemlari, oziq-ovqat va hayvonlar uchun ozuqa ishlab chiqarish maydonlaridan atrof-muhit namunalari, shuningdek, barcha turdagi suvlarni mikrobiologik tahlil qilish uchun mo'ljallangan madaniy muhitlarni tayyorlashga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Iste'mol qilish uchun mo'ljallangan yoki oziq-ovqat ishlab chiqarishda foydalaniladi. Ushbu talablar mikrobiologik tahlillarni o'tkazadigan laboratoriyalarda foydalanish uchun tayyorlangan barcha turdagi ozuqa muhitlarga taalluqlidir. Ushbu standart shuningdek, madaniy muhitning ishlash xususiyatlarini (ishlash testlari) aniqlash mezonlarini belgilaydi va usullarini tavsiflaydi.

Pseudomonas agar ozuqa muhitini tayyorlash:

50,6 g muhitni 1 litr distillangan suvda 10 ml glitserin qo'shilib suyultirildi. So'ngra eritma yaxshilab aralashtiriladi va qizdirilib qaynatib olinadi., To'liq eritmaguncha bir daqiqa qaynatib olinadi. Eritmaning harorati 121 °C da 15 daqiqa davomida Stegler VK-75 (75 l) Bug' sterilizator avtoklavda sterilizatsiya qilib olindi. Sterilizatsiya tugagach eritmaning harorati 45-50 °C gacha sovitib, yaxshilab aralashtiriladi va kamida 5 mm qalinlikdagi agar qatlamini olish uchun steril Petri idishlariga quyildi. Ozuqa muhitni qayta eritib yuborilmasligi kerak. Tayyor bo'lgan ozuqa muhiti sarg'ish rangga ega, biroz opal bo'lib, 8-15 °C haroratda qotgunicha saqlanishi kerak. Petri idishida qotgan ozuqa muhitini 28 °C da

TS-1/80 SPU termostatida 3 kun davomida saqlanadi.

Pseudomonas agar solingan Petri idishlari 3 kun davomida 28 °C haroratda termostatda saqlangandan so'ng hech qanday mikroorganizmlar o'smaganidan so'ng "Laminar-s" aparatida steril holatda namunamiz mikrobiologik tekshiruv uchun quyib olindi. So'nga Petri idishlari 28 °C da TS-1/80 SPU termostatida 7 kun davomida saqlandi. 7 kuni Petri idishlari tekshirilganda Pseudomonas agar ozuqa muhitida hech qanday mikroorganizmlar o'smaganligi ko'rildi.

(1- rasm).



A

Petri idishini old tarafdin ko'rinishi



B

Petri idishini orqa tarafdin ko'rinishi

1-rasm. Petri idishlariga quyilgan Pseudomonas agar ozuqa muhiti.

Agar Saburo yoki *dexostrous bersa Saburo* (SDA) - bu peptonni o'z ichiga olgan yuqori oziqlantiruvchi vosita turidir. [1] U dermatofitlarni va boshqa turdagi zamburug'larni yetishtirish uchun ishlatiladi va Nocardiya kabi filament bakteriyalarini

yetishtirish uchun ishlatiladi. Tadqiqot va klinik yordam uchun foydali.

№	Tarkibi	gram/litr
1.	Pepton	10,0
2.	Glyukoza	40,0
3.	Agar-agar	20,0

Yakuniy pH qiymati 25 °C da 5,6± 0,2

Sabouraud Dextrose Agar zamburug', mog'or va atsidofil mikroorganizmlarini yetishtirish uchun ishlatilishi mumkin. Patogen zamburug'lar, ayniqsa teri infeksiyalari bilan bog'liq bo'lganlarni yetishtirish uchun ishlatiladi. Ushbu vosita kosmetikadagi mikroorganizmlar va qo'ziqorinlarni aniqlash va oziq-ovqat mahsulotlarini mikologik baholash uchun ham javob beradi.

Ozuqa muhitning tarkibi Yevropa farmakopeyasi tomonidan tasdiqlangan. Dekstroza fermentlangan uglevod, uglerod va energiya manbai hisoblanadi. Pepton aralashmasi mikroorganizmlarning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan oziq moddalar manbai: azot, vitaminlar, mineral tuzlar va aminokislotalar. Dekstrozning yuqori konsentratsiyasi va past pH bu vositani zamburug'lar uchun tanlab oladi. Georg va boshqalar shuni ko'rsatdiki, uchta antibiotik bilan to'ldirilgan ushbu agar og'ir ifloslangan sinov materiallaridan patogen zamburug'larning izolyatsiyasini sezilarli

darajada yaxshilagan. Selektiv muhitni tayyorlash uchun steril sharoitda quyidagi antibiotiklarni qo'shing: 0,4 g sikloheksimid, 20 birlik penitsillin, 40 mg streptomitsin.

Ishlatishdan oldin Sabouraud agar shishasidan alyuminiy qopqoqni olib tashlandi va rezina tiqinni steril paxta doka bilan almashtirildi. Sabouraud agar bilan shishani eritma to'liq eriguncha qaynab turgan suv hammomida saqlandi, 45-45 °C haroratgacha sovutib olindi.

50 °C va 4-5 mm qatlamli steril Petri idishlariga quyiladi. To'liq qattiqlashgandan so'ng, muhit 37±1 °C haroratda 45-60 daqiqa davomida quritiladi. Ushbu shaklda Sabouraud agar 28 °C haroratda 10 kun davomida nazorat qilish uchun foydalanildi. **Agar Saburo** ozuqa muhitida hech qanday mikroorganizmlar o'smaganligi ko'rildi (2- rasm).



A

Petri idishini old tarafdin ko'rinishi



B

Petri idishini orqa tarafdin ko'rinishi

2-rasm. Petri idishlariga quyilgan *Pseudomonas* agar ozuqa muhiti.

Vismut sulfit agar (BSA)- selektiv va differentsial vosita bo'lib, uni izolyatsiya qilish va taxminiy identifikatsiya qilish uchun ishlatiladi. *Salmonella* spp, *Salmonella Typhi* ga alohida e'tibor qaratilgan.

52.33 gram vismut sulfit agarni distillangan 1000 ml suvda eritib tayyorlab olamiz. Muhitni to'liq eritish uchun aralashmani qaynaguncha qizdiring. Vismut sulfit agarni


sterilizatsiya qilish uchun avtoklav yoki fraksiyonel sterilizatsiya orqali tozalab olinadi. Vismut sulfit agar solingan Petri idishlari 3 kun davomida 28 °C haroratda termostatda saqlangandan so'ng hech qanday mikroorganizmlar o'smaganidan so'ng "Laminar-s" aparatida steril holatda namunamiz mikrobiologik tekshiruv uchun

quyib olindi. So'nga Petri idishlari 28 °C da TS-1/80 SPU termostatida 7 kun davomida saqlandi. 7 kuni Petri idishlari tekshirilganda Pseudomonas agar ozuqa muhitida hech qanday mikroorganizmlar o'smaganligi ko'rildi.

(3-rasm)

№	Tarkibi	gram/litr
1.	Pepton	10,0
2.	HM Pepton B	5,0
3.	Dekstroza (glyukoza)	5,0
4.	Natriy fosfat	4,0
5.	Temir sulfat	0,3
6.	Vismut sulfit ko'rsatkichi	8,0
7.	Yorqin yashil	0,025
8.	Agar-agar	20,0

Yakuniy pH qiymati 25 °C da 7,7± 0,2



A

Petri idishini old tarafdin ko'rinishi



B

Petri idishini orqa tarafdin ko'rinishi

3-rasm. Petri idishlariga quyilgan Vismut sulfit agar ozuqa muhiti. Mannitol-nitrat ozuqa muhiti. Enterobakteriyalarning harakatchanligini tez aniqlash uchun ozuqa muhiti hisoblanadi.

№	Tarkibi	gram/litr
1.	Pepton	10,0
2.	Bakteriologik agar	15,0
3.	Kaliy nitrat	1,0
4.	Mannitol	7,5
5.	Fenol qizil	0,04

Yakuniy pH qiymati 25 °C da 7,6± 0,2

22,04 g Mannitol-nitrat ozuqa muhitni 1 litr distillangan suvda suyultirildi. Yaxshilab aralastiring va qizdiring. Tez-tez aralastirib, qaynatib oling. To'liq eritmaguncha bir daqiqa qaynatib oling. Kolbalarga ustunlar balandligi 6-7 sm bo'lguncha quyiladi. 121°C da 15 daqiqa sterilizatsiya qilinadi.

So'nga Petri idishlari 28 °C da TS-1/80 SPU termostatida 7 kun davomida saqlandi. 7 kuni Petri idishlari tekshirilganda Mannitol-nitrat ozuqa muhitida hech qanday mikroorganizmlar o'smaganligi ko'rildi (4- rasm).



A

Petri idishini old tarafdin ko'rinishi



B

Petri idishini orqa tarafdin ko'rinishi

4-rasm. Petri idishlariga quyilgan Mannitol-nitrat agar ozuqa muhiti.

Kartoshka dekstrozi agar- zamburug'lar va mog'orlarni yetishtirish, aniqlash va sanab o'tish uchun vosita.

№	Tarkibi	gram/litr
1.	Dekstroz	20,0
2.	Bakteriologik agar	15,0
3.	Kartoshka	200,0

Kartoshka dekstrozi agar APHA va FDA tomonidan zamburug'lar va mog'orlarni yetishtirish uchun tavsiya etiladi. Bundan tashqari, zamburug'lar va bakteriyalarni aniqlash uchun ularning hujayra morfologiyasini o'rganish bilan parallel ravishda yoki shisha mikrokultura usullarida foydalanish mumkin.

Bakteriyalarning ko'payishini yo'q qilish uchun ushbu umumiy vositaga kislotaga yoki antibiotiklar qo'shilishi mumkin. Oziq moddalarga boy asos (kartoshka ekstrakti) mog'or va bakteriyalarning ko'p o'sishiga

Yakuniy pH qiymati 25 °C da 5,6± 0,2

yordam beradi. Dekstroz - uglerod va energiya manbasini ta'minlaydigan fermentlangan uglevod. Bakteriologik agar qattiqashtiruvchi hisoblanadi.

200 gramm pustidan ajratilgan kartoshkani 1 litr distillangan suvda 500 ml qolguncha 3 soat davomida qaynatib pishirib olindi. So'ng aralashmadan eritmani ajratib olish uchun 8 qavat dokadan aralashmani o'tkazib eritmani ajratib oldik. Eritmaga 15 gramm Agar-agar va 20 gramm Dekstroz qo'shib yaxshilab aralastirilib qizdirildi. To'liq

eritmaganuncha bir daqiqa qaynatib olindi. 15 daqiqa davomida 118-121 °C da Avtoklavda sterilizatsiya qilindi. 45-50 °C gacha sovutib, yaxshilab aralashtiriladi va Petri idishlariga quyiladi. So'nga Petri idishlari 28 °C da TS-

1/80 SPU termostatida 7 kun davomida saqlandi. 7 kuni Petri idishlari tekshirilganda Mannitol-nitrat ozuqa muhitida hech qanday mikroorganizmlar o'smaganligi ko'rildi (5- rasm).



A

Petri idishini old tarafdin ko'rinishi



B

Petri idishini orqa tarafdin ko'rinishi

5-rasm. Petri idishlariga quyilgan Kartoshka dekstrozi agar ozuqa muhiti.

Xulosa.

Tenebrio molitor lichinkalaridan ajratib olingan yog'ning miqdori to'liq tahlil qilindi va asosli ishlab chiqarish tarmoqlari uchun standartlari olindi. mikrobiologik tahlil jihatidan 3 xil turdagi ozuqa muhitlarida turlicha zararlangan bakterialarga qarshi

faolligi amaliy jihatdan tahlil qilindi va birinchi va ikkinchi turdagi ozuqa muhitlarida bakterialar faolligi pasayishini kuzatish imkonini berdi. Uchinchi turdagi ozuqa muhitida esa hech qanday mikroorganizmlar o'sish intensivligi kuzatilmaganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference List)

1. Adámková A., Kouřimská L., Borkovcová M., Kulma M., Mlček J. 2016. Nutritional values of edible Coleoptera (Tenebrio molitor, Zophobas morio and Alphitobius diaperinus) reared in the Czech Republic. *Potravinářstvo Scientific Journal for Food Industry* 10(1), 663-671.
2. Khujamshukurov, N. A., Abduolibov, M. Z., Salomova, S. S., Kh, K. D., & Aliqulov, S. M. (2023). ORGANIC PRODUCTION-PROBLEMS AND THEIR SYSTEMIC SOLUTIONS. Iqlimning davom etayotgan o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun agrobiologik xilma-xillikni o'rganish, saqlash va barqaror foydalanish muammolari, 750-759.
3. Collavo A., Glew R.H., Huang YS., Chuang LT., Bosse R., Paoletti M.G. 2005. House Cricket Small-scale Farming// *Ecological Implications of Minilivestock*. Pp.515-540.;
4. Ramos-Elorduy J., Gonzalez E.A., Hernandez A.R. & Pino J.M. 2002. Use of Tenebrio molitor (Coleoptera: Tenebrionidae) to recycle organic wastes and as feed for broiler chickens. *J. Econ. Entomol.* 95(1): 214-220.
5. Khujamshukurov N.A. 2011. Alternative protein products. *J. XXI-technology*. №4 (5):14-15
6. Salomova, S., Abduolibov, M., Kuchkarova, D., Feruzakhon, A., Razikova, M., Ismoilova, N., & Khujamshukurov, N. (2023). TENEBRIO MOLITOR BIOMASSASINING BAKTERIAL MIKROFLORASI. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (7), 189-202.



**YALLIG'LANISHGA QARSHI XUSUSIYATGA EGA
BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR**

Yunusaliyeva Madina Doniyor qizi

Andijon davlat universiteti

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 03.05.2024
Qayta qabul : 30.05.2024
Saytda mavjud : 31.05.2024

Muallif (lar)

M.D.Yunusaliyeva



Muallif bilan aloqa

madinayunusaliyevamadina@gmail.com

© **Muallif. M.D.Yunusaliyeva**
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Anotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ko'p o'stiriladigan va yallig'lanish xususiyatiga ega bo'lgan turli xil o'simlik turlari, ularning ahamiyati haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: dorivor o'simliklar, yallig'lanishga qarshi, farmasevtika, tibbiyot, biologik faol moddalar, vitaminlar, bo'yodaron, gulxayri, qariqiz, zanjabil, rozmarin, smorodina, antioksidant.

Аннотация: В этом разделе представлена информация о различных видах растений, которые часто выращиваются в Узбекистане и обладают противовоспалительными свойствами, а также об их значимости.

Ключевые слова: лекарственные растения, противовоспалительные средства, фармацевтические препараты, лекарственное средство, биологически активные вещества, витамины, бузина, бузина, имбирь, розмарин, смородина, антиоксидант.

Abstract: This article provides information about various types of plants that are widely grown in Uzbekistan and have inflammatory properties, and their importance.

Key words: medicinal plants, anti-inflammatory, pharmaceuticals, medicine, biologically active substances, vitamins, elderflower, elderberry, ginger, rosemary, currant, antioxidant.

O'zbekistonda asrlar davomida xalq tabobatida qo'llanib kelingan bir qancha keng tarqalgan dorivor o'simliklar mavjud. Markaziy Osiyoning qo'shni mintaqalari bilan taqqoslaganda, O'zbekistonning tog'laridagi maydon birligiga nisbati bo'yicha o'simliklar soni bir necha barobar ko'p. Mamlakatning boy o'simlik dunyosida olti mingdan ortiq turli xil o'simliklar mavjud, ular orasida dorivor o'simliklar ham bor. Bunday o'tlar ekologik toza bo'lib oziq-ovqat, aromatik va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida ishlatiladi.

Dorivor o'simliklar odam va hayvon organizmlariga ta'sir qiluvchi biologik faol moddalarni saqlovchi, tibbiyot maqsadida foydalaniladigan o'simliklar hisoblanadi. Ularda turli biologik faol moddalar (BFM) to'planadi: (alkaloidlar, glikozidlar, vitaminlar, achchiq moddalar, oshlovchi moddalar, polisaxaridlar, flavonoidlar, efir moylari va b.). Odatda dorivor o'simliklarni quyidagi guruhlariga bo'linadi: Tinchlantiruvchi, uyqu keltiruvchi, og'riq qoldiruvchi, yaralarni tuzatuvchi, qon to'xtatuvchi, safro haydovchi, yumshatuvchi va boshqalar. Inson va hayvonlar organizmida ro'y beradigan turli kasalliklarni davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar ichida shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanayotgan dorilar muhim o'rinda turadi.[1]

Tabobat insoniyat bilan bir davrda paydo bo'la boshlagan. Insonlar o'z-o'ziga, bir-biriga yordam berishi oqibatida asta-sekin tibbiy bilimlar vujudga kelib, asrar davomida o'ziga xos yo'lini bosib o'tgan. Tibbiy bilimlar rivojlanishi hozirgi davrga kelib o'ta ixtisoslashib, mayda bo'limlarga bo'lindi. Shunga qaramay, tabobat ilmi hozirgi

zamonda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va asrlar osha yetib keldi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan "Xalq tabobati akademiyasi"ning tashkil etilishi O'zbekiston tarixida muhim voqea bo'ldi. Zero, qadimiy Turon tabobati dunyosida tamal toshi qo'yganligi tarixiy manbalardan ma'lum. Bu muqaddas zamin tuprog'idagi har bir siyohning yaprog'idan ildizigacha turli dardlarga shifo bo'lishi azaldan isbotlangan. Dorivor ichimliklar, malhamlar tabiiy giyohlardan tayyorlanganligi bois alp qomat alp omishlar, suluv Barchinoylar dunyoga kelib, yetti iqlimga dong'i ketgan. Jahon tabobatining shayxurraisi Abu Ali ibn Sino kabi allomalarning vatani bu yurt.[2]

O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning qariyb 40-47% o'simlik xomashyolaridan olinadi. O'simliklar murakkab tuzilishiga ega bo'lgan jonli tabiiy kimyoviy laboratoriya bo'lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar yoki birikmalarni yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o'simliklarning quritilgan o'ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli, g'unchasi, mevasi (urug'ii), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan dori-darmon tarzida foydalaniladi. Dorivor o'simliklarni 2 xil tasniflash qabul

qilingan: 1) ta'sir qiluvchi moddalarning tarkibiga qarab alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli va boshqalar, 2) farmakologik ko'rsatkichlariga qarab tinchlantiruvchi, og'riq qoldiruvchi, uxlatuvchi, yurak-tomir tizimiga ta'sir qiluvchi, markaziy nerv sistemasini qo'zg'atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va boshqalar.[3]

Quyida yallig'lanishga qarshi xususiyatga ega bo'lgan dorivor o'simliklar bilan tanishamiz:

Bo'yodaron - Asteraceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik, ildizlari o'rmalovchi, simsimon shaklda. Poyasi tik turuvchi, balandligi 20-80 sm, mayin tuklar bilan qoplangan. Barg yaproqlari lansetsimon, cho'zinchoq, uzunligi 3-15 sm, eni 0,5-3 sm, pastki qismida nuqtali bezchalari bor, ikki yoki uch karra patsimon bo'lingan, asosiga biroz yetmaydi, ko'p sonli (15-30) bir-biridan sezilarli uzoqroq joylashgan birlamchi bo'laklari bor, ular 9-15 ta tishsimon bo'lakchalarga ega. Gul savatchalari poyaning yuqori qismidagi qalqonchalarda to'planadi. Tilsimon gullari 5 ta, rangi oq, kamdan kam hollarda pushti rangda bo'ladi. Urug'lari (pistacha) yassi, cho'zinchoq kumushsimon-kulrang, uzunligi 1,5-2 mm. Iyun oyidan yozning oxirigacha gullaydi: urug'lari iyul-sentyabrda pishib yetiladi. Tibbiyotda o'simlikning yer usti qismi ishlatiladi.

Bo'yodaron barglari va gullari tarkibida azulenlar, murakkab efirlar, kamfora, tuyol, sineol, kariofillen, chumoli, sirka va izovalerian kislotalarini o'z ichiga olgan efir moyi kiradi. O'simlik tarkibida taninlar, qatronlar, achchiqliklar, vitaminlar,

alkaloidga o'xshash axillien va boshqa moddalari mavjud.

Bo'yodaron o'ti yallig'lanishga qarshi va bakteritsid ta'sirga ega. Ular oshqozon-ichak traktining turli kasalliklari, oshqozon yarasi va gastrit uchun damlama va qaynatma shaklida qo'llaniladi. Bu oshqozon va ishtaha ochuvchi choylarning tarkibiga kiradi. Bo'yodaronning qichitqio't o'simligi bilan birga preparati ichki va tashqi qon ketishida qon to'xtatuvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida buyuriladi.[4]

Gulxayri - Malvaceae oilasiga mansub ko'p yillik o't. Poyasi tik o'suvchi, oddiy yoki kam shoxlangan, mayin yulduzsimon tukli, balandligi 70-150 sm. Barglari tuxumsimon, pastki qismi odatda uchburchak-yuraksimon shakliga ega, chetki qismi tartibsiz qo'ng'urali-tishsimon, ba'zida bir oz 3-5 bo'lakli, zich mayin tukli, kul rang-yashil, bandli, yuqori barglari qisqa bandli. Gullar barglar qo'ltig'ida tutam bo'lib joylashgan, juda qisqa gulbandli, zich mayin tukli. Ostki kosacha Gulyonbarglari (8)-9-(10) qo'shib o'sgan, tuxumsimon cho'zilgan, zich mayin tukli, uchli bargchalardan tashkil topgan, kosachabarglarga nisbatan qisqaroq. Kosachabarglari tuxumsimon, tepaga qarab uzayib uchli, zich mayin tukli, pastki qismida qo'shib o'sgan. Gultojibarglari och yoki yorqin pushti, ba'zan oq tusli, kosachaga qaraganda 1,5-2 baravar uzunroq, gultojibarglar uchburchak-teskari yuraksimon. Urug'lari orqa tomonda silliq yoki juda oz burishgan, yulduzsimon-mayin tukli,

chetki qismida to'rtinchi, soni 15-18. Iyun-avgust oylarida gullaydi, iyul-sentyabr oylarida mevalaydi.

Gulxayri yallig'lanishga qarshi, o'raluvchi, balg'am ko'chiruvchi, yo'talga qarshi ta'sirga ega. Gulxayrining shifobaxsh xususiyatlari polisaxaridlarning ko'pligi bilan bog'liq, ularni suvli damlamada shishishi kuzatiladi, hajmi oshishi va shilliq pardalar va terini ingichka qatlam bilan qoplashi mumkin. Bu qatlam shilliq pardalarni zararli omillardan (sovuq yoki quruq havo; oziq-ovqat tarkibiy qismining bezovta qiluvchi ta'siri, qurishi) himoya qiladi.[4]

Qariqiz - *Arctium tomentosum* Mill. (Лопух войлочный) Asteraceae oilasiga mansub, balandligi 60-180 sm bo'lgan yirik ikki yillik o't o'simlik. Ildizi etli, o'q ildiz, kam shoxlangan, uzunligi 60 sm gacha; poyasi tik turuvchi, egiluvchan, chiziq-chiziq, mayin tukli. Barglari bandli, keng yurak-tuxumsimon, tishsimon. Pastki barglari yirik (uzunligi 50 sm gacha, eni biroz kamroq). Gullari qalqoncha yoki qalqonsimon ro'vak shaklida joylashgan sharsimon savatchalarga yig'ilgan. Gullari naysimon, ikki jinsli, gultojibarglari binafsha-qizg'ish rangli, kosachabarglari popukli. Mevasi cho'zinchoq, silliq, qirrali, dog'li, 5-7 mm uzunlikdagi popukli pistachalar. Iyul – avgust oylarida gullaydi, mevalari avgust – sentyabrda pishadi.

Turli xil mualliflarning fikriga ko'ra, qariqiz o'simligi mikroblarga qarshi faollikka ega, bezgakka qarshi (isitma tushiruvchi) ta'sirga ega va shamollashda qo'llaniladi, oshqozon yarasi, jigar kasalliklarida, bavoil, siydik tosh kasalliklarida, bod kasalligida, ko'karishlar, yaralar, bosh og'rig'ida (peshonada

kompress shaklida) mahalliy vosita sifatida ishlatiladi. Qariqiz preparatlarning antitoksik ta'siriga oid ma'lumotlar mavjud (hasharotlar va ilonlarning chaqishida, simob preparatlari bilan zaharlanish va boshqalar).

Og'iz bo'shlig'i, tomoq, yuqori nafas yo'llari va oshqozon-ichak trakti shilliq qavatining yallig'lanishi uchun ishlatiladi. Shuningdek, qariqiz jinsiy organlar kasalliklari, jigar toshi, trofik yaralarni davolashda, tasmaimon chuvalchanglar bo'lganda ishlatiladi. Barg shirasidan teri saratonini davolashda ishlatiladi.[5]

Zanjabil — o'tkir va ozgina qizdiradigan mahsulot bo'lib, u qovurilgan taomlarda sharqona ta'mni ochib beradi. Sharqda mashhur bo'lgan ziravorlar o'zining noyob ta'mi va shifobaxsh xususiyatlari tufayli dunyoni zabt etdi — zanjabilning ta'mi va hidi nafaqat taomlarni, balki shamollash va tushkun kayfiyat bilan kurashishga yordam beradigan xushbo'y choyni ham eslatadi. Yangi va maydalangan zanjabil vitamin, mikroelement, efir moylari manbai bo'lib, organizmga yallig'lanishga qarshi va mustahkamlovchi ta'sir ko'rsatadi. Askorbin kislotasi, A va B guruhi vitaminlari, rux, kalsiy, yod, tabiiy antibiotik va antimikotiklar tufayli zanjabil kuchli antioksidant bo'lib, bir vaqtning o'zida immunitetni mustahkamlaydi. Zanjabilning ildizi yallig'lanishni kamaytirishda samarali hisoblanadi. Kefir — bir choy qoshiq zanjabil sharbati, bir chimdim dolchin va

qizil qalampirni kefirga qo'shib, tunda ichish mumkin.

Sevimli retseptlar qatorida zanjabil sharbatini kamaytirmaslik kerak. Bu eliksir, ayniqsa, go'shtli taomlar uchun yaxshi, chunki uning tarkibida oqsil tuzilishini o'zgartiruvchi fermentlar mavjud.[6]

Rozmarin (Rosmarinus) — labguldoshlar oilasiga mansub o'simliklar turkumi, efir moyli ekin. O'rta dengiz havzasida 1—3 turi usadi. Doim yashil buta. Bo'yi 1,5–2 m cha. Bargi va to'pgulidan efir moyi olinadigan dorivor P. (*R. officinalis*), asosan, Yevropa mamlakatlarida, shuningdek, Qrim va Kavkazda o'stiriladi. Qalamchasidan, kamdankam urug'idan ko'paytiriladi. 2—3 yillik ko'chatlari ekiladi. Ekilgandan keyin 2—3yildan boshlab bargi va to'pguli yig'ib olinadi. Hosildorligi 40—120 s/ga. Bargi va to'pguli tarkibida parfyumeriya va tibbiyotda ishlatiladigan 1,5 — 2,5% (quruq moddaga nisbatan) efir moyi, 0,5% gacha rozmaritsin va boshqa alkaloidlar, ursol va rozmarin kislotalari bor. Butalari 7 — 9 yilda yoshartiriladi. R. 20—25 y. hosil beradi. Rozmarinning organizmga foydalari juda ko'p. Masalan tanadagi yallig'lanishni oldini oladi; asab tizimini himoya qiladi; nafas yo'li kasalliklariga qarshi kurashadi; qon bosimini

yaxshilaydi; migren og'riqlarni kamaytiradi.[7]

Smorodina yoki qoraqat (*Ribes*) qoraqatdoshlar oilasiga mansub butasimon ko'p yillik o'simliklar turkumi, rezavor mevadir. Vatani — Yevropa. Sning Yevrosiyo, Shimoliy va Janubiy Amerikaning sovuq va mo'tadil, Afrikaning mu'tadil mintaqalarida o'sadigan 150 yovvoyi turi bor. Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikada ekiladi. O'zbekistonda tog'li hududlarda butazorlar orasida; soylarda, tog yon bag'irlarida yovvoyi holda o'sadi. Smorodinaning qora (*R. nigrum* L), qizil S. (*R. rubrum*), tillarang S. (*R. aureum*) va boshqa turlari ekiladi. Qora smorodina barglari va mevalari yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega. Jigarni inson tanasining kimyoviy zavodi deb hisoblash mumkin. Agar odamda jigar bilan bog'liq muammo bo'lsa, u inson tanasining sog'lig'iga jiddiy zarar etkazadi. Tarkibidagi antioksidant moddalar qora smorodina meva ekstrakti, masalan, antosiyaninlar, vitamin C, flavonoidlar va fenolik kislotalar yaxshi antioksidant ta'sirga ega va jigarni himoya qilishda sezilarli ta'sirga ega.[8].

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference List)

1. www.google.com Dorivor o'simliklar ularning tabiatda va inson hayotidagi roli. cyberleninka.ru
2. M.A.Jo'rayev – Dorivor o'simliklar atlas. Toshkent-2019.
3. Tulyaganova M. Yuldashev A.S – O'zbekistonda keng tarqalgan foydali o'simliklar. Toshkent-2011.
4. O.K.Xojimatov, X.Q.Haydarov, D.T.Xamrayeva, D.A.Imomova, A.N.Xujanov – O'zbekiston dorivor o'simliklariatlasi. Samarqand – 2021.
5. uz.wikipedia.org/wiki/Qariqiz
6. medal.uz/zanjabil-sogliq-uchunfoydalari-va-istemoli/
7. [instagram.com/sogliqdunyosi/p/CxX007gqrc/](https://www.instagram.com/sogliqdunyosi/p/CxX007gqrc/)
8. <https://srcyrl.ingredients-lonier.com/info/what-are-the-benefits-of-black-currant-fruit-e-74356891.html>



RIVOJLANISH JARAYONIDA O'SMIRLIK DAVRI INQIROZLARI

Hakimova Gulyora Adaxamjon qizi., Alisherova Zulfiyaxon

Andijon davlat pedagogika instituti

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 03.05.2024
Qayta qabul : 16.05.2024
Saytda mavjud : 31.05.2024

Muallif (lar)

Hakimova G.A
Alisherova Z

Muallif bilan aloqa

gulyorahakimova21@gmail.com



© **Muallif. Hakimova G.A**
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri bo'lgan o'smirlik davri inqirozlari hamda bu davrda o'smirlarda qanday o'zgarishlar ro'y berishi, ularni xulq-atvoridagi o'zgarishlar, salbiy hamda ijobiy xislatlarning shakllanishi, salbiy xislatlarni ijobiy xislatlarga o'zgartirish uchun qanday chora- tadbirlar ko'rish lozimligi ularda qo'rquv hissi va havotirlanish hissining kuchli bo'lishi to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan, shuningdek va ommaviy axborot vositalaridan to'g'ri foydalanish borasida qanday ishlar olib borilishi kerakligi, Ota-onalari va o'qituvchilar bu yoshdagi bolalar bilan qanday munosabatda bo'lishlari to'g'risida so'z yuritildi.

Kalit so'z: O'smirlik davri, inqirozlar, ideal men, axloqiy men, xayoldagi auditoriya, oila muhiti, salbiy va ijobiy faza, ommaviy axborot vositalari, determinatsiya, o'smirlar psixikasi, kattalik tuyg'usi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются одни из актуальных проблем подросткового возраста, кризисы и кризисы, какие изменения происходят у подростков в этот период, изменения в их поведении, формирование отрицательных и положительных черт, трансформация отрицательных черт в положительные. какие меры следует предпринять для изменения характеристик, информации о сильном чувстве страха и тревоги у подростков, а также что следует сделать для правильного использования средств массовой информации. Обсуждалось, как родителям и педагогам следует обращаться с детьми этого возраста.

Ключевые слова: Подростковый возраст, кризисы, идеальное Я, моральное Я, воображаемая аудитория, семейное окружение, негативная и позитивная фазы, средства массовой информации, детерминация, психика подростка, становление взрослой жизнью.

Annotation: In this article, one of the current problems of adolescence, crises and crises, what changes occur in adolescents during this period, changes in their behavior, the formation of negative and positive traits, and the transformation of negative traits into positive ones. what measures should be taken to change the characteristics, information about the strong feeling of fear and anxiety in teenagers, and what should be done about the correct use of mass media It was discussed how parents and teachers should deal with children of this age.

Key words: Adolescence, crises, ideal self, moral self, imaginary audience, family environment, negative and positive phase, mass media, determination, adolescent psyche, becoming an adult.

KIRISH (INTRODUCTION)

Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti davrida yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib ta'lim va tarbiya berish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ma'lumki, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'smir yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab ularga o'qishlari, ishlashlari uchun shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi bor imzolagan qonun hujjati 2016-yil 14-sentabrda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi qonuni ekanligini ham unutmashimiz kerak.

METODLAR (METHODS)

O'smirlik davri, asosan, 10-11 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, ko'pchilik bolalarda bu davr erta boshlanadi va 5-6-siflarga to'g'ri keladi. Bu davrda o'smir

endi bola emas, lekin katta ham emas. U o'zini xuddi katta odamlar singari tuta boshlaydi. O'smirlarda ham fiziologik, ham psixologik o'zgarishlar kuzatila boshlaydi. Bu davrda o'smir, bolalik bilan hayrlashadi, lekin katta hayotda o'z o'rnini hali topmagan bo'ladi. O'smirlik davri "krizis davri", "qiyin davr" singari nomlar bilan nomlanadi, bu davrda o'smirlarda psixik portlash jarayoni kuzatiladi. Olimlardan biri L.S.Vigotskiy o'smirlik davridagi bunday holatni "psixik rivojlanishdagi krizis" deb nomlagan.[1-63]

NATIJARAR (RESULTS)

O'smirlik davrida yoshlarda dunyoqarashlari o'zgaradi, yangi prinsiplar paydo bo'ladi, o'zligini anglay boshlaydi, o'zini baholash singari xususiyatlar shakllana boshlaydi. Yana o'smirlarda bu davrga kelib "Ideal men" va "Axloqiy men" shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarda o'zini atrofdagilarga isbotlash hissi yuqori bo'ladi. U endi kichkina emas, balki katta bo'lib qolganini isbotlashga urinadi. O'zini kattalardek tuta boshlaydi. Shuning uchun psixolog olimlar "Katta bo'lib qolganlik" tuyg'usini o'smirlik yoshidagi asosiy his ekanligini takidlashgan.

L.S. Vigotskiy o'smirlik davrida qiziqishlarning o'zgarishga bog'liq ravishda ikkiga bo'lgan salbiy va ijobiy fazasini takidlagan." Salbiy fazada ilgari qiziqishlar o'zgarishini, o'qishining sustlashib ketishini atrofdagilarga salbiy munosabatda bo'lishi, o'z-o'zidan qoniqmasligi, ya'ni

unga o'zining hech narsasi yoqmaydi hattoki, o'zining tana tuzilishi ham yoqmay qoladi hamma narsadan umidini uzib atrofida bo'layotgan voqea hodisalarga umuman befarq bo'lib qoladi. Ijobiy fazadagi o'smir yigit-qizlarda esa ilgargi holatlaridan yaxshiroq natijalar ko'rsatishadi masalan, darslarda yana ham faol qatnasha boshlaydilar, oila a'zolariga va do'stlariga yaxshi munosabatda bo'ladilar"[2-355]. Bu davrda o'smirlarda fikrni tez-tez o'zgartirish, do'st tanlash kabi jarayonlar kuzatiladi. Ularning ijobiy yoki salbiy xislatlarni egallashi 13-15 yoshlar oralig'ida sodir bo'ladi. L.S.Vigotskiy "O'smirlik davri salbiy xislatlarini ijobiy xislatlarga o'zgartirish yoshini 13 yosh deb hisoblagan 14-15 yoshlarga kelib o'smirlardagi salbiy xislatni ijobiy xislatga o'zgartirish birmuncha qiyinlasha boradi. Bu davrda ota-onalar va o'qituvchilar birgalikda bolaga e'tiborni kuchaytirishsa, o'smir bolalardagi salbiy xislatlarni ijobiy xislatga o'zgartirish yanada tezroq va osonroq bo'ladi"[3-355].

MUXOKAMA (DISCUSSIONS)

O'smirlarda <<Xayoldagi auditoriya>> fenomeni paydo bo'ladi. Unda o'smirni tomoshabinlar kuzatib turgandek, u sahna markazida hamma unga qiziqadi, uni tashqi ko'rinishiga, xulq-atvoriga va hissiyotlariga hamma qiziqadi degan fikrlar paydo bo'ladi.

O'smirlik davrida qo'rquv hissi ham juda kuchli bo'ladi. Bolalar atrof muhitda oila ichida bo'layotgan muammolardan, janjallardan ham qo'rquvga tushishi mumkin. Oilasidagi unga bo'layotgan munosabatlardan qoniqmasligi o'zini hech kimga kerak emasdek his qilishi, uni hech kim

yoqtirmagandek tuyuladi go'yoki u juda yomon va xunuk inson kabi qo'rquvlar bo'ladi. O'smirlar psixikasi shu qadar o'zgaruvchanki, u hattoki ob-havodan ham qo'rquv hissini tuyishi mumkin masalan, shamol, chaqmoqlardan juda qattiq qo'rqib talvasaga tushib qolishi mumkin. Bu borada D.R.Rahmonovanning "O'smirlarda qo'rqinch determinatsiyasi xususiy holatlarini turli vaziyatlarda rivojlanishi mavzusidagi ilmiy ishida qo'rqinch holatlar o'smirlarga juda qattiq salbiy ta'sir ko'satishini takidlab o'tgan"[4-357].

O'smirlar o'zlarining tushunchalari o'y-fikrlari negizida ularning orzu, maqsad va ularni ro'yobga chiqarish amalga oshirish namoyon bo'la boshlaydi va ular ota-onasidan uni fikrini hurmat qilgan holda, qo'llab-quvvatlab sarmoya kiritishlarini kutadilar. O'smirlarda muayyan kasbga mayl va qiziqish uyg'onadi va ular shu yo'nalish bo'yicha astoydil o'qib o'rganib boradilar.

Aytib o'tilganidek, o'smirlarda ijobiy hamda salbiy xislatlar bo'ladi. Shu sababli, barcha o'smirlarda axloqiy tushunchalar bir xil bo'lmaydi. Bizning yurtimizda ko'p millat vakillari ahil, inoq, do'stona munosabatda istiqomat qilishmoqda. Ko'p yoshlarimiz ya'ni o'smirlarimiz milliy qadriyatlarimizni unitib qo'yishmoqda boshqa davlatlardagi tengdoshlariga taqlid qilib ularning kiyinish madaniyatini, Ota-onaga va yaqinlarga bo'lgan munosabatlarini o'rganib ularga taqliq qilishmoqda. Bunga sabab ommaviy axborot vositalarining kundan-kunga

rivojlanib ketayotgani deb o'ylayman. O'smir yoshlarimiz hozirda kitob o'qish o'rniga qo'l telefonlaridan ko'p foydalanishmoqda ko'p vaqtlarini Telegram, Instagram, Fecebook kabi saytlarda behuda o'tkazib yuborishmoqda. Bu esa o'sib kelayotgan yangi avlod yoshlarining odobiga, xulqiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'smirlarda axloqiy tushunchalar barobar tarkib topmasligini psixolog A.I.Maliovanov ham takidlab o'smirlarni to'rtta guruhga ajratgan.

“1.Xatti-harakati o'zlari anglagan ijobiy qoidalarga tayanib ish tutadigan, so'zi bilan ishi mos keladigan o'smirlar.

2.Axloqiy tushunchalari qiliqlariga mos kelmaydigan o'smirlar.

3.Xatti-harakatlari axloqiy normalar haqidagi bilimlari bilan ajralib turadigan, shu bilimlarga mos harakat qiladigan o'smirlar .

4. O'zlari biladigan axloqiy talablari bilan kindalik xulq-atvorlari aloqasini tushunmaydigan o'smirlar”[5-145].

XULOSALAR (CONCLUSION)

Xulosa o'rnida aytganda kattalar o'smirlar bilan do'stona ularni to'la tushunib va aql bilan rahbarlik qilsalar, bunga o'smirlar ijobiy qaraydi. Ammo bu raxbarlik kattalarning xohish istagi ustunligida kechsa, bu holatda o'smirlar qarshilik ko'rsatadilar. Bu qarshilik salbiy oqibatlariga ba'zan depressiyaga olib kelishi mumkin. O'smirlik davri inson hayotida mustahkam poydevor qo'yiladigan kasbiy va shaxsiy jarayonlarda muhim ahamiyatga ega davr hisoblanadi. Shu sababli ota-onalar va o'qituvchilar o'smir bolalarni nazorat qilib turishlari ularga to'g'ri yo'lni topishlarida ko'maklashishlari kerak. Ularni qo'llab-quvvatlab ishonch bildirishlari lozim. BU davrda olingan bilim va ta'lim-tarbiya insonning hayotida muhim ro'l o'ynaydi. Lekin o'smirlarga hamma narsani me'yorida bo'lgani maqulroq ta'lim va tarbiyani kuchaytirib yuborilsa bolani ta'limdan ko'ngil qolish holatlari kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference List)

1. Mirziyoyev.Sh Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davim ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz.T:”O'zbekiston-2017”
2. Davletshin.M.G. “Yosh davrlari va pedagogik texnologiya.” T:.. - 2004.
3. Karimova.V.M, Akromova.F.A “Psixologiya.” T – 2000.
4. “Umumiy psixologiya” E.G'.G'oziyev T: Toshkent-2010
5. “Rivojlanish psixologiyasi”T.[Toshkent- 2007
6. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. R. A. Mavlonova, N. X. Rahmonqulova, B. A. Normurodova, K. O. Matnazarova.2014,145-b.



CREATION OF AN ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MODEL OF THE EMPLOYEES DEVELOPMENT STRATEGY OF A COTTON GINNING ENTERPRISE

¹Tojiboeva Nafisaxon Raxmiddin qizi., ²Kamoliddinov Sherzodbek Latifjon o'g'li

¹Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies., Department of Agribusiness and Marketing, Lecturer, Doctor of Philosophy in Economics., ²Agrobusiness and investment activity educational direction 3rd year student of group 67

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 30.05.2024
Qayta qabul : 30.05.2024
Saytda mavjud : 31.05.2024

Muallif (lar)

Tojiboeva N.R
*Kamoliddinov SH.L



Muallif bilan aloqa
<https://orcid.org/0009-0001-7859-094X>



sherzodbekamoliddinov071@gmail.com

© Muallif. Kamoliddinov SH.L va boshqalar
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annotation. The article discusses the issues of creating an organizational and economic model of the strategy for the development of ginners based on the study of their competencies.

Keywords: ginnery, competence, employee, development, model.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы создания организационно-экономической модели стратегии развития хлопкоочистителей на основе изучения их компетенций.

Ключевые слова: хлопкоочистительный завод, компетентность, сотрудник, развитие, модель.

Annotatsiya: Maqolada paxta tozalash korxonalarini ularning malakasini o'rganish asosida rivojlantirish strategiyasining tashkiliy-iqtisodiy modelini yaratish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: paxta tozalash zavodi, malaka, xodim, ishlab chiqish, model.

Enter. The new role of man in the workplace and rapid changes in the economy, organizational culture and technology have created new problems such as careful selection, training, remuneration and their rational use of personnel. It is no longer possible to solve these tasks within the framework of traditional work with personnel. This work should be included as an equal component in the strategic management process. In modern conditions, management of human resources development should become an integral part of strategy planning and implementation process. Today, the strategic goals of the enterprise can be realized only by employees who meet the motivational requirements necessary to move to a certain strategy and a new, changing business environment. In this sense, strategic planning processes can develop successfully only if the consequences of the chosen strategy for employees are taken into account. For this, the company's strategy should be known to its employees, developed with the broad involvement of employees, because in this case, employees support management initiatives and ensure the implementation of the company's strategic goals.

In the Strategy of Actions on the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021, the important tasks of "deepening structural changes, increasing its competitiveness at the expense of modernization and diversification of the leading sectors of the national economy" [1] are defined. The successful solution of such huge tasks requires the development of concrete measures to increase the competitiveness of the cotton ginning

enterprises of our republic by improving the management efficiency of the employees.

Analysis of literature on the topic.

Nowadays, many scientists are studying such categories as "labor potential", "labor quality", and solving the problems of developing labor potential and maximizing its use is one of the main tasks of the company's personnel policy [2,3,4].

Formation and development of labor potential are two fundamentally different mechanisms of labor potential management. Formation - giving the object certain basic characteristics; development is the process of changing an object to improve it. Development is usually understood as increasing the complexity of the system, improving its adaptability to external conditions, qualitatively improving the scale and quantitative growth of the economy and its structure, and social progress. Development means the emergence of new elements or the emergence of new objects and their differentiation. As the authors summarize the ideas, employee development is the process of training of their professional characteristics, self-development, professional activity and the formation of the personality of employees through the interaction of employees with each other [5].

The development of labor potential is the acquisition of new qualities and characteristics of labor potential that contribute to its alternative and efficiency in a dynamic internal and external environment. Development includes

important quantitative and qualitative changes, changes in labor potential. As a result of development, a new quality of labor potential is formed [6,7,8]. According to the definition of Yu.G. Odegov, management of labor potential is "a system of interrelated measures that provides a guiding, coordinating and stimulating effect of society on production participants and is directed to intensive factors of labor use" [9].

Analysis and results. Many industrial enterprises prefer to focus more investment on personnel development. This allows them to have highly qualified specialized staff, which in turn turns out to be more reliable and profitable than hiring specialists from outside. In addition, as a conscious approach to personnel policy, employee development has a positive effect on corporate standards and corporate ethics, which has a positive effect on the prestige and reputation of the enterprise. Usually, large industrial enterprises tend to follow a certain strategy of personnel development: it includes initial training of new employees (basic personnel training) and periodic measures to improve the professional level of existing personnel. Modern additional educational institutions create ample opportunities for planned activities for the development of employees.

In our opinion, the following sequence of actions is the most effective in developing a strategy for the development of employees of a cotton ginning enterprise:

- analysis of the socio-economic potential of the organization, identification of internal points for creating possible competitive advantages;
- product market analysis and determination of business areas;

- formation of the product-market, resource-market and integration strategy of the production enterprise;

- formation of financial and investment strategies;

- formation of social strategy;

- determination of potential and development of prospective requirements for employees of the cotton ginning enterprise, including divisions (corporate culture, socio-psychological climate, employee-organizational relations, etc.);

- formation of a strategy for the development of employees of the cotton ginning enterprise.

After completing the formation of the personnel development strategy, it is required to develop a personnel development management system that includes methodological, technical, informational and organizational support for the implementation of the developed personnel development strategy of the cotton ginning enterprise.

It is worth noting that a cotton ginning enterprise should formulate not only a full-scale strategy for the performance and development of its employees, but also all the listed high-level strategies, because they directly affect the development of personnel.

In order to ensure the effectiveness of the staff training strategy of the cotton ginning enterprise, it is appropriate to develop a rational organizational and economic model based on the effective use of existing human resources and aimed at increasing the competitiveness of the enterprise in the domestic and foreign markets.

From our side, the following organizational-economic model of the strategy for the development of employees of the cotton ginning enterprise is proposed (Fig. 1).

Link between business strategy and employee development strategy. The first block of the presented organizational-

economic model includes checking each element and direction in the business strategy and determining the requirements for personnel and the level of their participation in the implementation of the strategy.




Figure 1. Organizational-economic model of the strategy for the development of employees of a cotton ginning enterprise (author's development)

Employee participation can be direct (moving a division or opening a branch in another city, moving some employees, recruiting employees in a new region and reducing some of the employees in the old place) or indirect (changing the brand of some products may not lead to significant employee participation in this process).

Resolution of the Cabinet of Ministers dated December 17, 2020 No. 794 "On the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" of the President of the Republic of Uzbekistan, "On the digitization system of the agro-industrial complex and agriculture of the Republic of Uzbekistan on development measures" No. PD (President decree)-6079 of October 5, 2020, on the approval of the "Digital Uzbekistan - 2030" strategy and measures for its effective implementation" PD-6079 of October 5, 2020 This dissertation research serves to a certain extent in the implementation of the tasks defined in the Decrees No. "On measures for the wide introduction of digital economy and electronic government" as well as other regulatory legal documents related to this field.

Main Part:

Understanding Uzbekistan's Market Dynamics:

□ Uzbekistan's agricultural markets are influenced by factors such as climate variability, government policies, and market reforms.

□ Agribusinesses in Uzbekistan must navigate challenges such as land fragmentation and limited access to credit and inputs.

□ Strategies such as cooperative farming, diversification of crops, and participation in government programs can help

mitigate risks and capitalize on market opportunities.

Optimizing Inventory Management in Uzbekistan:

□ Uzbekistan's agribusinesses face challenges related to seasonality, transportation infrastructure, and storage facilities.

□ Implementing efficient inventory management practices, such as crop rotation, proper storage techniques, and market timing, can optimize inventory turnover and reduce post-harvest losses.

□ Investments in cold storage facilities and transportation infrastructure can improve supply chain efficiency and enhance market access for agricultural products.

Managing Accounts Receivable in Uzbekistan's Context:

□ Credit availability and payment delays are common challenges faced by agribusinesses in Uzbekistan.

□ Developing robust credit policies, conducting thorough credit assessments, and establishing clear payment terms are essential for managing accounts receivable effectively.

□ Collaboration with financial institutions and government agencies can facilitate access to credit and mitigate the risk of payment defaults.

□ Leveraging Technological Innovations for Uzbekistan's Agribusinesses:

□ Technological advancements offer significant opportunities to enhance productivity and efficiency in Uzbekistan's agribusiness sector.

□ Adoption of precision agriculture technologies, such as drip irrigation and soil sensors, can optimize resource utilization and improve crop yields.

□ Blockchain-based solutions can enhance transparency and traceability

in the agricultural supply chain, promoting trust and quality assurance in domestic and international markets.

In order to illustrate the importance of effective current asset management in Uzbekistan's agribusiness sector, let's consider a hypothetical scenario of a medium-sized

agricultural enterprise dealing with cotton cultivation. We'll compare the financial performance with and without implementing optimized current asset management practices over a one-year period.

Metrics	Without Optimization	With Optimization
Revenue (in USD)	500,000	550,000
Cost of Goods Sold (COGS)	350,000	320,000
Gross Profit	150,000	230,000
Inventory Turnover Ratio	5 times	7 times
Accounts Receivable Days	60 days	45 days
Bad Debt Expenses	10,000	5,000
Net Income	90,000	150,000
Return on Investment (ROI)	15%	25%

Explanation:

1) Revenue: With optimized current asset management practices, the enterprise experiences a 10% increase in revenue due to improved market timing and better inventory management.

2) Cost of Goods Sold (COGS): By optimizing inventory levels and reducing wastage, the COGS decreases by 8.6% compared to the scenario without optimization.

3) Gross Profit: The gross profit increases significantly by 53.3% when current assets are managed effectively, leading to improved profitability.

4) Inventory Turnover Ratio: With optimization, the inventory turnover ratio increases from 5 times to 7 times, indicating more efficient utilization of inventory resources.

5) Accounts Receivable Days: By implementing better credit policies and reducing payment delays, the accounts receivable days decrease from 60 days to 45 days, improving cash flow.

6) Bad Debt Expenses: Effective management of accounts receivable results in a 50% reduction in bad debt expenses, contributing to higher net income.

7) Net Income: The net income increases from 90,000 USD to 150,000 USD, demonstrating the positive impact of optimized current asset management on overall profitability.

Return on Investment (ROI): With higher net income and reduced expenses, the ROI improves from 15% to 25%, indicating better returns for the enterprise's investments.

Conclusion: Effective management of current assets is paramount for the sustainable development of Uzbekistan's agribusiness sector. By understanding the country's unique market dynamics and challenges, and adopting tailored strategies for current asset management, Uzbekistan's agribusinesses can enhance operational efficiency, mitigate risks, and foster long-term growth. Collaboration between government agencies, financial

institutions, and private enterprises is essential to create an enabling environment for agribusiness development in Uzbekistan. Through strategic investments in technology, infrastructure, and human capital, Uzbekistan can unlock the full potential of its agricultural sector, contributing to economic prosperity and food security.

List of sources and references:

1. Berdnikova T.B. Analysis and diagnosis of financial and economic activity of agribusiness enterprises: Textbook. - M.: INFRA-M, 2020. - 224 p.
2. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Agricultural economy. — T.: //TDIU, 2004. — P. 304.
3. SH. Mirziyoev We will build our great future together with our brave and noble people. T.: Uzbekistan, 2017 439 p.
4. SH. Mirziyoev The rule of law and ensuring human interests are the guarantee of the country's development and people's well-being. T.: Uzbekistan, 2017 47 p.
5. "Critical analysis, strict discipline and Personal responsibility should be the daily rule of every leader's activity. // Confidence. - 2017. - January 17
6. Sh. Mirziyoev. Scientific achievements are an important factor of development// "People's Word", December 31, 2016.
7. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis. 24.01.2020.
8. Kaplan R., Norton D. Strategy-oriented organization. How organizations using the Balanced Scorecard are succeeding in the new business environment



G'O'ZANING TIZMALARARO DURAGAYLARIDA TOLA
CHIQUIMINING IRSIYLANISHI VA O'ZGARUVCHANLIGI

¹Xalikova M.B., ²Soriyeva S.E., ¹Mayatyakubova E.U.

¹Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti

²O'simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 17.05.2024
Qayta qabul : 30.05.2024
Saytda mavjud : 31.05.2024

Muallif (lar)

*Xalikova M.B
Soriyeva S.E
Mayatyakubova E.U



Muallif bilan aloqa
<https://orcid.org/0000-0001-9620-6131>



khalikovamalokhat@gmail.com

© Muallif. Xalikova M.B va boshqalar
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annotatsiya. Yovvoyi tur ishtirokidagi tizmalararo F1-F2 o'simliklarda asosiy qimmatli-xo'jalik belgilari poligen belgilarga xos ravishda oraliq holatda irsiylanib, bu o'rtacha ko'rsatkichlari nisbatan yuqori bo'lgan ota-ona tizmalar tomon og'gan holda kechadi. Belgilarning irsiylanishida resiprok farqlanish kuzatilmadi va buni belgilarning yuzaga kelishini boshqaruvchi genlarning allel holatlari bilan kam farqlanishi, ularning o'rtacha ko'rsatkichlarining bir-biriga yaqin bo'lganligi bilan izohlandi.

Kalit so'zlar. G'o'za, tizma, belgi, tola chiqimi, irsiylanish, o'zgaruvchanlik, poligen belgi, resiprok.

Аннотация. У межлинейных растений F1-F2 с участием дикого вида хлопчатника основные хозяйственные признаки наследуются в промежуточном состоянии, типичном для полигенных признаков, со смещением в сторону родительских линий с относительно высокими средними значениями. Реципрокных различий в наследуемости признаков не наблюдалось, и это объяснялось тем, что аллельные состояния генов, контролирующих возникновение признаков, различались мало, а их средние значения были близки друг к другу.

Ключевые слова. Хлопок, тизма, признак, выход волокна, наследственность, изменчивость, полигенность, реципрокность.

Annotation. In interline F1-F2 plants with the participation of a wild cotton species, the main economic traits are inherited in an intermediate state, typical of polygenic traits, with a shift towards parental lines with relatively high average values. There were no reciprocal differences in the heritability of traits, and this was explained by the fact that the allelic states of the genes that control the occurrence of traits differed little, and their average values were close to each other.

Key words. Cotton, tism, trait, fiber yield, heredity, variability, polygenicity, reciprocity.

Amaliy seleksiya uchun miqdoriy belgilarning irsiylanish darajasini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. M.F.Abzalov ning ta'kidlashicha, g'o'zaning *G.hisutum* L. turida tola chiqimining shakllanishi murakkab belgi bo'lib, genlarning murakkab o'zaro ta'siri nazoratida o'tadi [1].

G'o'za ekini qadim zamonlardan oq asosan tolasini uchun ekilgan [5]. Ishlab chiqarishga tola chiqimi yuqori bo'lgan navlarni joriy qilish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham boshlang'ich ashyoni baholashda, uni tanlashda tola chiqimiga alohida e'tibor beriladi. Tola chiqimi murakkab poligen belgi bo'lib, har xil omillar ta'sirida o'zgarib turadi va nav hamda namunalarda 25-40% gacha bo'ladi [3].

M.Xalikova g'o'zaning yovvoyi poliploid *G.tomentosum* Nutt. ex Seem. turi ishtirokidagi duragaylarning dastlabki bo'g'inlarida tola chiqimi bo'yicha ko'rsatkich 41,5% gacha bo'lganligini ta'kidlab o'tgan [4].

Z.Raxmonovning tajribalarida tola chiqimi bo'yicha aniqlangan irsiylanish koeffitsientlari har xil ko'rsatkichga ega bo'lgan. Bu esa navlarning genotipiga bog'liq ravishda duragaylarda belgining turli tarzda namoyon bo'lishiga olib keldi. O'rganilgan 20 ta kombinatsiyadan 12 ta sida belgi bo'yicha dominantlik koeffitsienti salbiy ko'rsatkichga ega bo'lib, ularda past tola chiqimi qayd etilgan bo'lsa, qolgan duragaylarda ijobiy bo'lgani, ya'ni yuqori tola chiqimi aniqlandi. Tajribada olingan natijalar asosida oddiy duragaylashga nisbatan murakkab duragaylash orqali tola chiqimi bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan rekombinant o'simliklarni paydo bo'lishini kuchaytirish mumkin deb xulosa qilindi [4].

F'1 o'simliklarida tola chiqimining irsiylanishi. Boshlang'ich tizmalar va

birinchi avlod duragaylarining tola chiqimi umumiy paxta vazniga nisbatan foizlarda hisoblandi. Ota-ona shakllardan L-001 tizmasida tola chiqimi o'rtacha 34.5%, T-5/8 tizmasida 36.3%, T-21/24 tizmasida 35.2%, T-25/27 tizmasida 34.8 va T-26 tizmasida 34.4% ni tashkil qildi. Yuqoridagi tizmalarni chatishtirib olingan G'1 o'simliklarda tola chiqimi 34.2-37.1 gacha oraliqda bo'ldi (1-jadval).

L-001 tizmasi onalik sifatida qatnashgan kombinatsiyalarda tola chiqimi 34.2-35.8% (resiprok kombinatsiyalar bo'yicha 34.7-36.8%), T-5/8 tizmasi onalik sifatida qatnashgan kombinatsiyalarda 35.4-37.1 % (resiprok kombinatsiyalar bo'yicha 35.7-36.5%), T-21/24 tizmasi onalik sifatida chatishtirilgan kombinatsiyalarda 34.7-36.2% (resiprok kombinatsiyalar bo'yicha 34.6-36.7%), T-25/27 tizmasi onalik sifatida qatnashgan kombinatsiyalarda 34.8-36.7% (resiprok kombinatsiyalar bo'yicha ham 34.8-37.1%) va T-26 tizmasi onalik sifatida qatnashgan kombinatsiyalarda 34.7-36.5% (resiprok kombinatsiyalar bo'yicha 34.2-35.4%) ni tashkil qildi.

Belgining o'zgaruvchanlik darajasi 1.5-4.49% ni tashkil qildi. Belgi bo'yicha dominantlik ko'rsatkichi duragay kombinatsiyalar bo'yicha -0.71 dan 8.5 gacha oraliqda bo'ldi. Shundan 4 holatda ota-ona tizmalarining o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan past natija kuzatilgan bo'lsa ($h_p = -5,0-0,25$), 16 holatda nisbatan yuqori ko'rsatkich ($h_p = 0,14-8,5$) qayd qilindi. Yuqoridagi 16 holatdan 5 tasida to'liqsiz dominantlik, 7 holatda o'ta dominantlik, ya'ni geterozis va 4 holatda to'liq dominantlik kuzatildi.

G² o‘simliklarda tola chiqimining irsiylanishi va o‘zgaruvchanligi. F₂ o‘simliklar va boshlang‘ich ota-ona shakllarida belgining qay tarzda shakllanishini o‘rganish maqsadida terilgan yakka tanlovlar tola chiqimi variatsion qator asosida tahlil etildi. Boshqa belgilar kabi tola chiqimi bo‘yicha ham o‘zgaruvchanlik koeffitsientlari o‘zaro taqqoslab o‘rganildi. Ota-ona

tizmalardan L-001 da tola chiqimi 34.1%ni, T-5/8 tizmasida 35.8%, T-21/24 tizmasida 35.3%, T-25/27 tizmasida 34.8% va T-26 tizmasida 34.6% ni tashkil qildi. G² o‘simliklarning tola chiqimi 33.8-36.1% oralig‘ida bo‘lib, belgining o‘zgaruvchanligi 3.47-5.66% ga tengligi aniqlandi (2-jadval).

1-jadval

F₁ o‘simliklarda tola chiqimining irsiylanishi, %

T/r	Ota-ona shakl va F ₁ o‘simliklar	M±m	σ	V%	hp
1.	L-001	34.5±0.34	1,52	4.42	-
2.	T-5/8	36.3±0.30	1.37	3.78	-
3.	T-21/24	35.2±0.33	1.47	4.18	-
4.	T-25/27	34.8±0.33	1.48	4.25	-
5.	T-26	34.4±0.34	1.52	4.43	-
6.	L-001 x T-5/8	35.8±0.27	1.59	4.45	0.44
7.	T-5/8 x L-001	36.8±0.18	0.81	2.19	1.55
8.	L-001 x T-21/24	34.6±0.24	1.09	3.15	-0.71
9.	T-21/24 x L-001	34.9±0.16	0.75	2.16	0.14
10.	L-001 x T-25/27	34.8±0.23	1.03	2.97	1.0
11.	T-25/27 x L-001	35.2±0.27	1.21	3.43	3.66
12.	L-001 x T-26	34.2±0.11	0.51	1.50	-5.0
13.	T-26 x L-001	34.7±0.23	1.04	3.02	5.0
14.	T-5/8 x T-21/24	35.6±0.22	1.01	2.84	-0.27
15.	T-21/24 x T-5/8	36.2±0.15	0.67	1.87	0.81
16.	T-5/8 x T-25/27	37.1±0.18	0.82	2.21	2.06
17.	T-25/27 x T-5/8	35.7±0.23	1.03	2.89	0.2
18.	T-5/8 x T-26	35.4±0.11	0.53	1.50	0.05
19.	T-26 x T-5/8	36.5±0.21	0.97	2.66	1.21
20.	T-21/24 x T-25/27	35.6±0.19	0.87	2.45	3.0
21.	T-25/27 x T-21/24	36.7±0.21	0.94	2.57	8.5
22.	T-21/24 x T-26	34.7±0.21	0.94	2.72	-0.25
23.	T-26 x T-21/24	35.2±0.35	1.58	4.49	1,0
24.	T-25/27 x T-26	34.8±0.23	1.06	3.05	1.0
25.	T-26 x T-25/27	34.8±0.20	0.90	2.61	1.0

L-001 tizmasi onalik sifatida qatnashgan kombinatsiyalarda tola chiqimi 33.8-35.5% (resiprok kombinatsiyalar bo‘yicha 35.5-36.1%) ni tashkil qildi. Ushbu duragaylarda belgining o‘zgaruvchanligi 4.21-5.66% ga teng bo‘lib, o‘simliklar variatsion qatorida turlicha joylashdi va ajralish ketayotganiga qaramasdan ota-ona shakllarning ko‘rsatkichlari doirasida namoyon bo‘ldi.

T-5/8 tizmasi onalik sifatida qatnashgan kombinatsiyalarda tola chiqimi 34.8-36.0% (resiprok kombinatsiyalarda 34,4-35,3%) ni, belgining o‘zgaruvchanligi esa 4.06-5.53% ni tashkil qildi. Bu kombinatsiyalarning o‘simliklari variatsion qatorning deyarli barcha sinflarida tarqalgan bo‘lib, 40.0-41.0% tola chiqimiga ega bo‘lgan o‘simliklar ham ajralib chiqdi.

F₂ o'simliklarida tola chiqimini o'zgaruvchanligi va irsiylanish ko'rsatkichi, %

T/r	Ota-ona shakl va F ₂ o'simliklar	n	Sinflar oralig'i 1,0%											M±m	σ	V%	h ²
			30,0-30,9	31,0-31,9	32,0-32,9	33,0-33,9	34,0-34,9	35,0-35,9	36,0-36,9	37,0-37,9	38,0-38,9	39,0-39,9	40,0-40,9				
1.	L-001	20			2	8	6	3	1					34.1±0.23	1.04	3.04	
2.	T-5/8	20					3	8	8	4				35.8±0.18	0.81	2.27	
3.	T-21/24	20				3	6	6	2	2	1			35.3±0.31	1.38	3.92	
4.	T-25/27	20				5	6	6	3					34.8±0.23	1.04	2.98	
5.	T-26	20			1	5	6	6	2					34.6±0.24	1.08	3.14	
6.	L-001 x T-5/8	125	3	7	17	25	29	19	13	7	5			34.4±0.16	1.83	5.33	0.18
7.	T-5/8 x L-001	111		1	2	6	14	26	38	14	8	2		36.0±0.14	1.46	4.06	0.15
8.	L-001 x T-21/24	116		5	8	15	16	23	20	15	12		2	35.5±0.18	2.01	5.67	0.32
9.	T-21/24 x L-001	118		1	2	6	10	24	49	18	8			36.1±0.12	1.34	3.71	0.07
10.	L-001 x T-25/27	118		10	22	38	26	11	8	3				33.8±0.13	1.42	4.21	0.05
11.	T-25/27 x L-001	110		1	5	8	19	39	22	10	6			35.5±0.14	1.45	4.07	0.03
12.	L-001 x T-26	120	4	7	19	28	28	23	5	6				34.0±0.15	1.60	4.70	0.26
13.	T-26 x L-001	133	1	1	4	5	19	60	29	14				35.5±0.11	1.23	3.47	0.11
14.	T-5/8 x T-21/24	145		3	11	17	26	34	22	15	12		5	35.5±0.16	1.96	5.53	0.34
15.	T-21/24 x T-5/8	134			12	13	45	35	12	8	5	2	2	35.1±0.14	1.65	4.69	0.29
16.	T-5/8 x T-25/27	131			8	11	19	27	25	20	14	4	3	36.0±0.16	1.89	5.25	0.35
17.	T-25/27 x T-5/8	152			11	21	25	47	25	16	7			35.3±0.12	1.54	4.35	0.16
18.	T-5/8 x T-26	124			11	24	41	24	11	8	5			34.8±0.13	1.49	4.27	0.23
19.	T-26 x T-5/8	119			9	15	36	30	13	9	7			35.1±0.14	1.52	4.35	0.15
20.	T-21/24x T-25/27	121		5	10	23	40	22	11	7	3			34.6±0.14	1.53	4.43	0.17
21.	T-25/27xT-21/24	128		9	10	21	31	28	14	7	5	1	2	34.8±0.17	1.88	5.40	0.31
22.	T-21/24 x T-26	115		7	12	23	32	20	12	6	3			34.5±0.15	1.63	4.73	0.20
23.	T-26 x T-21/24	158			32	54	43	11	9	5	2		2	34.1±0.12	1.51	4.44	-0.09
24.	T-25/27 x T-26	136		9	26	36	28	17	11	7	2			34.1±0.14	1.63	4.79	0.17
25.	T-26 x T-25/27	122		8	18	33	24	20	14	5				34.2±0.14	1.55	4.53	0.16

T-21/24 tizmasi onalik sifatida chatishtirilgan kombinatsiyalarda tola chiqimi 34.5-36.1% (resiprok kombinatsiyalar bo'yicha 34.1-35.5%) ekanligi aniqlandi. Belgining o'zgaruvchanligi 3.71-4.73% ni tashkil qildi.

T-25/27 tizmasi onalik sifatida qatnashgan kombinatsiyalarda tola chiqimi 34.1-35.5% (resiprok kombinatsiyalar bo'yicha 33.8-36.0%) ni tashkil qildi. Bu kombinatsiyalar bo'yicha o'zgaruvchanlik koeffitsienti 4.21-5.25% ga teng bo'lib, o'simliklarning asosiy qismi variatsion qatorning o'rta sinflarida joylashdi. T-26 tizmasi onalik sifatida qatnashgan kombinatsiyalarda tola chiqimi 34.1-35.5% (resiprok kombinatsiyalar bo'yicha 34.1-34.8%) ni tashkil qildi. Bu duragaylarda belgining o'zgaruvchanligi 3.47-4.53% ga teng bo'lib, o'simliklar variatsion qatorning asosan 33.0-37.0% lik oraliqlarida joylashdi. Belgining irsiyatga uzatilish koeffitsienti -0,09 dan 0,35 gacha

bo'ldi. Tola chiqimi belgisining irsiylanishida boshlang'ich tizmalarining ona yoki ota sifatida ishtirok etishida farqlanish, ya'ni resiprok farqlanish kuzatilmadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ikkinchi avlod duragaylarida tola chiqimi belgisining bunday irsiylanishi bizningcha, ota-ona namunalarida bu belgining yuzaga kelishini boshqaruvchi genlarning allel xolatlari bilan kam farqlanishi, ularning o'rtacha ko'rsatkichlarini bir biriga juda yaqin bo'lganligi bilan izohlash mumkin. Shuning bilan bir qatorda ikkinchi avlod duragay kombinatsiyalarida bu belgining irsiylanishi, o'rtacha ko'rsatkichlari nisbatan yuqori bo'lgan ota-ona tizmalar tomon og'gan holda kechganligini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference List)

1. Abzalov M.F. *Gossypium hirsutum L. g'ozada genlarning o'zaro ta'siri.*-Toshkent: Fan, 2010. -141 b.
2. Axmedov OA, X. M., & Matyakubova, E. U. (2022). *G. arboreum L. and G. herbaceum L. types: history of research, now and in the future.* Journal of Pharmaceutical Negative Results, 445-450.
3. Korenev G.V., Podgorniy P.I. *Rasteniyevodstvo s osnovami seleksii i semenovodstva.* M.: Agropromizdat, 1990. -574 s.
4. Xalikova, M. B., Asqarova, Z. O., Matyakubova, E. U., Sorieva, S. E., & Karshiev, Sh. B. (2023). *rezultaty izucheniya priznakov ustoychivosti xlopchatnika k sosuchim vreditelyam.* Science and innovation, 2(Special Issue 6), 654-658.
5. Xalikova, M. B., Nurmatov, A., & Raxmonova, R. B. (2023). *G. hirsutum L. turi duragaylarida tola rangi belgisining irsiylanishi.* Science and innovation, 2(Special Issue 6), 607-610.



MASOFAVIY TA'LIMDA "BIGBLUEBUTTON" DASTURIDAN FOYDALANISH

¹Abdusamatov Samandar., ²Abdusamatova Diyora., ²Fozilova Madinabonu

¹AndDU Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi,
²AndDU talabalari

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 27.05.2024
Qayta qabul : 28.05.2024
Saytda mavjud : 29.05.2024

Muallif (lar)
*Abdusamatov S
Abdusamatova D
Fozilova M

Muallif bilan aloqa
<https://orcid.org/0009-0006-4405-0490>
abdusamatovsamandar1@gmail.com

© Muallif. Abdusamatov S va boshqalar
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Maxfiylik bayonoti
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada masofaviy ta'limda axborot texnologiyalarining o'quvchilarga bilim berishda integratsiya masalalari hususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar:

BigBlueButton, Javascript, Java, Scala

Абстрактный:

В данной статье рассматриваются вопросы интеграции информационных технологий в предоставление знаний студентам при дистанционном обучении.

Ключевые слова:

BigBlueButton, Javascript, Java, Scala

Abstract:

This article discusses the issues of integration of information technologies in providing knowledge to students in distance education.

Keywords:

BigBlueButton, Javascript, Java, Scala

XXI asr axborot texnologiyalar asri ekanligi barchamizga ma'lum. Deyarli har bir sohada EHM, IT dan foydalanish oddiy holga aylandi. Rivojlanib borayotgan IT sohasi orqali ko'plab sohalarda yengilliklar vujudga keldi. Jumladan ta'lim sohasida ham. Ta'lim tizimida IT dan foydalanish orqali matematik hisob kitoblarni sodda holda hisoblash, fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish, elektron kutubxonalar yaratish kabi qulayliklarga erishish mumkin.

IT ayniqsa karantin davrida ta'lim tizimida katta hajmdagi ishlarni, darslarni, jarayonlarni tashkillashtirishda bevosita ishtirok etib kelmoqda. Butun jahon global ofatlaridan biri bo'lgan COVID-19 bizni mamlakatimizni ham chetlab o'tgani yo'q. U olamshumul bo'ron butun dunyoni qamrab olib ta'sir ko'rsatmagan javhasi qolmadi. Butun dunyo ta'lim tizimiga ta'sir qildi. Insoniyat bugungi kundagi rivojlanishlarga bundan bir necha asr oldin ham erishishi mumkin edi. Faqat jaholat va urush ular keltirib chiqaradigan yuqumli kasalliklar nafaqat ilm olishga shu bilan birga munosib hayot tarziga rga bo'lishga ta'sir qilib kelgan.

Bugungi kunda ta'lim tizimi yana bir bor sinovni boshdan kechirmoqda. Butun jahonda oliy va o'rta ta'lim masofaviy tashkil etila boshladi. O'quvchilarni o'qitishda yangicha yondashish talab etilayotgan bu davrda hammamiz koronavirusga qarshi kurashmoqdamiz. Konfutsiy ta'kidlaganidek: "O'zgarishlardan qo'rqmanglar ular ayni vaqtida keladi" deganlar. Bugungi masofaviy darslar aslida bor, lekin ular zarurati ikkinchi darajada edi. Bugungi ko'rinayotgan kamchiliklar bizga bir saboq bo'lib tajriba orttirishimizga zamin bo'lmoqda.

BigBlueButton – bu dastur ko'plab videokonferensiyalar, yig'ilishlar, mitinglar

hamda o'quv jarayonlarini boshqarish uchun ishlab chiqarilgan dastur hisoblanadi. 2020 yil 19-oktabrdan boshlab keng ommaga taqdim etilgan. Ushbu dastur Java, Scala, Javascript hamda React kabi dasturlash tillarida yozilgan. Bigbluebutton dasturini afzallik tarafi shundan iboratki dars o'tib borayotgan ma'ruzachiga talabalar bilan bog'lanishga qiyinchilik va muammo tug'dirmaydi va darsga umuman halaqit bermaydi. Yana bir afzalligi barchamizga ma'lumki O'zbekiston Respublikasining ko'plab joylarida internet sifati juda yomon ushbu dastur past darajadagi internet tezligi bilan ham bemalol uzilishsiz ishlatishimiz mumkin. Shu bilanbirga shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, ushbu ilovada trafik hajmi ham katta emas.

Xulosa. BigBlueButton dasturidan masofaviy ta'limda foydalanish anchagina yaxshi natijalar berishi mumkin. O'qituvchi darslarni platforma, veb-sayt va turli xil ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib cheklanmagan miqdorda talabalarga dars o'tish imkonini yaratadi. BigBlueButton dasturidan nafaqatq masofaviy ta'limda boshqa tadbirkorlik, sanoat va boshqa sohalarda ham foydalanish mumkin.

Videokonferensiyalar orqali darslarni koronavirus pandemiyasini batamom yengganimizdan keyin ham davom ettirishimiz mumkin, chunki talabalar brogan sari axborot texnologiyalari olamiga chuqur kirib bormoqda. Hozirda hayotimizni internet, kompyuter, telefon va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference List)

1. Google.com qidiruv tizimi.
2. Wikipedia.org qidiruv tizimi.



NOK ZARARKURANDALARI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI

Axmedov Anvar Tursunboyevich., Zokirov Odiljon Kozimovich

Andijon davlat universiteti

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 03.05.2024
Qayta qabul : 22.05.2024
Saytda mavjud : 31.05.2024

Muallif (lar)

A.T.Axmedov
O.K.Zokirov



Muallif bilan aloqa

<https://orcid.org/0009-0000-6651-2429>



anvarjonahmedov1982@gmail.com

© Muallif. A.T.Axmedov va boshqalar
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annotatsiya: So'nggi 20 yil ichida hasharotlarning zarari va nazorat qilish xarajatlari sezilarli darajada oshdi. Hozirda nok yetishtiruvchilar har yili insektsidlariga 14 million dollar sarflaydi. Zararkunandalarga qarshi kurash bilan bog'liq xarajatlarning oshishi, shu jumladan pestitsidlariga chidamliligini oshirish, zararkunandalarga qarshi kurash imkoniyatlarini kamaytirish va kimyoviy xarajatlarning oshishi nok ishlab chiqarishni yanada qiyinlashtirdi. Integratsiyalashgan kasalliklarni boshqarish dasturining maqsadi kasalliklarni boshqarish xarajatlarini minimallashtirgan holda, yildan-yilga kasalliklarni nazorat qilishning tijorat uchun maqbul darajasini ta'minlashdan iborat. Har bir mevali bog' uchun barcha mavjud nazorat taktikalarini birlashtiradigan dastur ishlab chiqilishi kerak. Kasallikni to'g'ri aniqlash kasallikni boshqarish bo'yicha aqli qarorlar qabul qilishda juda muhimdir. Vaholanki *Cacopsylla pyricola* nokning eng muammoli hasharot zararkunandasi, *Codling kuya esa olma va nokning jiddiy zararkunandasi* hisoblanadi. To'g'ri identifikatsiya qilish to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun juda muhimdir. Biz Respublikamizning nok o'sadigan hududlarida kimyoviy, biologik va madaniy operatsiyalar orqali bu hasharotlar va zararkunandalarga qarshi kurashishning eng samarali strategiyalarini muhokama qildik. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi nok ekinlarining zararkunandalarini erta aniqlashdir.

Kalit so'zlar: *Cacopsylla pyricola*, zararkunandalar, *Codling*, nok, kimyoviy.

Abstract: The primary insect and mite pests of pear are codling moth, pear psylla, mites and borer. Over the last 20 years, insect damage and the cost of control have risen substantially. Pear growers currently spend as much as \$14 million annually on insecticides. Increasing costs associated with pest control including increased pesticide resistance, reduced pest management options and increased chemical costs have made pear production more challenging. The objective of an integrated disease management program is to provide a commercially acceptable level of disease control from year to year while minimizing the cost of disease management. For each orchard, a program needs to be developed that integrates all available control tactics. Accurate disease identification is critical in making smart disease management decisions. While *Cacopsylla pyricola* is the most troublesome insect pest of pears and Codling moth is a serious pest of apples and pears. It is important for growers to recognize all stages of these insects and mites that attack pears. Proper identification is critical to making the correct management decisions. We have discussed most effective strategies to control these insect and pest through chemical, biological and cultural operations in pear growing regions in Republic. The main objective of this review article is earlier pest identification of pear crops.

Key words: *Cacopsylla pyricola*, pests, Codling, pear, chemical.

Аннотация: Основными насекомыми и клещами-вредителями груши являются плодовая жук, грушевая листовёртка, клещи и сверлоточка. За последние 20 лет ущерб от насекомых и стоимость борьбы с ними существенно возросли. Производители груш в настоящее время тратят до 14 миллионов

долларов в год на инсектициды. Увеличение затрат, связанных с борьбой с вредителями, включая повышение устойчивости к пестицидам, сокращение возможностей борьбы с вредителями и увеличение затрат на химикаты, сделало производство груш более сложным. Целью комплексной программы борьбы с болезнями является обеспечение коммерчески приемлемого уровня борьбы с болезнями из года в год, минимизируя при этом затраты на борьбу с болезнями. Для каждого сада необходимо разработать программу, объединяющую все доступные тактики борьбы. Точная идентификация заболеваний имеет решающее значение для принятия разумных решений по управлению заболеваниями. *Cacopsyllapyricola* является наиболее опасным насекомым-вредителем груш, а плодовая жук является серьезным вредителем яблонь и груш. Для производителей важно распознавать все стадии развития этих насекомых и клещей, поражающих груши. Правильная идентификация имеет решающее значение для принятия правильных управленческих решений. Мы обсудили наиболее эффективные стратегии борьбы с этими насекомыми и вредителями с помощью химических, биологических и культурных мероприятий в регионах выращивания груш в Республике. Основной целью данной обзорной статьи является более раннее выявление вредителей посевов груши.

Ключевые слова: *Cacopsylla piricola*, вредители, плодоносящая ягода, груша, хим.

KIRISH

Nok, nashvati, olmurut (lotincha: *Pyrus*) — Atirguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub mevali va manzarali daraxt va butalar turi.

Nok bizlarga tarixgacha bo'lgan davrda yetib kelgan. Uning vatani aniq o'rnatilmagan. Yetishtirilgan nok Qadimgi Yunonistondan kelib chiqqan (er. old. 1000-yil oldin).

Yevropada nok yovvoyi ko'rinishda taxminan 60° shahri k.da tarqalgan. Arealning shimoliy chegarasida - siyrak.

2006-yilda sovuqqa chidamli navlarini muvaffaqiyatli seleksiya qilish natijasida nok Ural va G'arbiy Sibirda 55° shahri k.gacha joylashgan bog' maydonlarida samarali o'stirilmoqda.

Noklarning madaniy navlarining kelib chiqishi bir qator ko'rinishlarining, qisman, *Pyrus achras* Gärtn., *Pyrus persica* Pers., *Pyrus cordata* Desv., *Pyrus elaeagnifolia* Pall.larning gibridlanishi bilan bog'liq deb taxmin qilmoqdalar. Noklar qadimgi Forsiya, Yunoniston va Rim imperiyasida etishtirilgan.

Hozirgi vaqtda noklarning mingta navi bor.

Xitoy nok yetishtirish bo'yicha dunyoda yetakchi davlat bo'lib, 2013-yilda 17,3 million tonna nok yetishtirgan.

Qo'shma Shtatlar nok yetishtirish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi va shu davrda 0,795 million metrik tonnani qayd etdi.[20]. Nok yetishtiruvchi boshqa mamlakatlar qatoriga Italiya, Argentina va Turkiya kiradi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2013 yilda jami jahon ishlab chiqarishi 25 million tonnadan ortiqni tashkil etdi. Hindiston ishlab chiqarish 2017 yilda 306 metrik tonnani tashkil etgan

Nokning foydali xususiyatlari

Qadimgi Gretsiyada noklarni «xudolar inoyati» deb atashgan. Bu sersuv mevalar juda foydali bo'lib, ular quyidagi kasalliklarda juda foydalidir:

- nok o'zida fruktozani saqlashi sabab ham uni oshqozon osti bezi kasalliklarida iste'mol qilish tavsiya qilinadi;

- nok o'zida kaliy moddasini saqlashi sabab yurakka ham yaxshi ta'sir o'tkazadi, yurak ritmini me'yorlashtiradi;

- nokdagi aminokislotalar stressga qarshi kurashishda yordam berib, organizmni mustahkamlaydi, viruslardan himoya qiladi;

- noklar ovqat hazm bo'lishi va moddalar almashinuvi jarayonini yaxshilaydi;

- kuch-quvvat bag'ishlab, charchoq va zo'riqishlardan xalos bo'lishga yordam beradi;

- foliy kislotasini saqlashi sabab ham, homilador ayollarga juda foydalidir.

Nokning zararli tomonlari nimada

Nokda ko'p kislota va biriktiruvchi to'qimalar mavjudligi sabab ham ba'zi bir insonlarga iste'mol qilish tavsiya qilinmaydi. Ularning hazm bo'lishi qiyinligi sabab ham ularni quyidagi holatlarda bir kunda faqat 1-2 dona iste'mol qilishga ruxsat etiladi:

- Oshqozon-ichak kasalliklarida;

- Ovqat yeb bo'lgandan so'ng 2-3 soatdan keyin;

- Suv yoki sut ichib bo'lgandan ancha keyinroq.

Oshqozon yarasidan aziyat chekuvchilarga nokni och qoringa iste'mol qilish tavsiya etilmaydi.

MUXOKAMA

Mamlakatimizning tabiiy iqlim sharoitlari bog'dorchilik rivojlantirish, ulardan yuqori sifatli va mo'1 hosil olish uchun g'oyat qulay. Yetishtirilayotgan bu mahsulotlar o'zining vitaminlarga boyligi, shiraliligi va to'yimliliigi bilan inson salomatligi uchun qimmatbaho hisoblanadi. Bog'lardan mo'1 va sifatli mahsulot olish uchun ularning asosiy zararkunandalari, kasalliklari va begona o'tlarga qarshi kurash ishlarini doimiy ravishda o'tkazish zarur bo'ladi.

Olmadan keyin eng ko'p tarqalgan meva ekini nok bo'lib, mevasining mazaligi bilan qadrlanadi. Nok mevalari yangiligicha iste'mol qilinadi, qoqi, konserva, so'qat, povidlo, murabbo, sharbat, vino, bekmes (nok asali) tayyorlanadi. O'zbekistonda yetishtiriladigan nok tarkibida 10,8-12,7 % gacha shakar, 0,13-0,30 % kislotalar, 0,35 % ga yaqin pektin va 0,31 % kul bor. O'zbekistonning iqlim sharoiti nok uchun unchalik qulay emas, lekin shunga karamasdan bizda qurg'oqchilikka, issiqqa, kasallik va zararkunandalarga chidamli mahalliy navlari mavjud.

Nokning Evropa navlari shox-shabbasi siyrak, ixcham, ko'pincha piramida shaklida, novdalari yuqoriga tik o'sgan bo'lib, yo'g'on shoxlarida hosil novdalari zich joylashgan, ularda barglar hamda hosil organlari juda ko'pligi bilan harakterlanadi. Nok ayrim maxalliy navlari bir tup daraxtdan 1000-1400 kilogrammgacha hosil berishi mumkin. Bog'larning asosiy zararkunandalariga qarshi kurash choralari o'z vaqtida o'tkazilmagan hollarda o'rtacha 35-40% va undan ko'p hosil yo'qotiladi hamda mahsulot sifati pasayadi.

O'zbekiston sharoitida nokzorlarga ko'plab zararkunanda xashorotlar zarar yetkazadi. Nok kanasi va nok shira biti shular jumlasidandir. Shuning uchun ularga qarshi

kurashish dolzarb muammolardan xisoblanadi. Shish qo'zg'atuvchi nok kanasi — Eriophyes pyri Pagst. To'rt oyoqli kanalarning Eriophyidae oilasiga mansub. Nok kanasi, nok barglarida ba'zan juda ko'payib, barglarning, qisman mevalarning talaygina qismini nobud qiladi va daraxtlarni majmag'il qilib qo'yadi. Nok kanasi Osiyo, Yevropa va Amerikada keng tarqalgan. Nok kanasi juda mayda bo'lib, oddiy ko'zga ko'rinmaydi. Kana tanasi cho'ziq, chuvalchangsimon, qornida ko'ndalang egatlar, orqa tomonida do'mboqchalar bor; rostrum (tumshug'i) kalta; oyoqlari faqat ikki juft; kattaligi 230 mikronga boradi. Nok daraxtlarida zararkunanda borligi daraxtdagi xarakterli o'zgarishlardan bilinadi. Nok kanasi yetuk zot shaklida kurtaklar yonida yoki po'stlog'i ostida to'planib qishlab chiqadi. Mart aprel oylarida havo harorati 10° C dan oshganda chiqib oziqlana boshlaydi.

Yangi una boshlagan kurtak barglarini so'rishi natijasida barglarning yuqori tomoni qavarib, ostki tomonida 2–3 mm li gall (shish) hosil bo'ladi. Shishlarning ichi kovak bo'lib, bargning ichki tomonidagi kichkina yumaloq teshik yordamida tashqariga tutashadi. Kanalar gallning ichida oziqlanib ko'payadi. Kelgusida mayda gallar qo'shilib, o'ziga xos qora dog'lar hosil qiladi. Nok kanasi mavsumda 4–5 ta bo'g'in berib ko'payadi. Kana populyatsiyasida erkak zotlari kuzga tomon ko'paya boradi va avgustga borib umumiy soniga nisbatan 14–20 % ni tashkil etadi. Shish hosil qiluvchi nok kanasining zarari tufayli daraxt barglari va mevalarining ko'p qismi yetilmasdan to'kilib ketadi. Hosildorlik ba'zan 50 %

gacha kamayib ketishi mumkin [3]. Nok shira biti. Voyaga yetgani va lichinkalari nok kurtaklari, barglari, gullari va ingichka novqalarining shirasini so'rib, daraxtlarni juda ham majmag'al qilib qo'yadi. Qattiq zararlangan barglar qorayib, to'kilib ketadi. Nok shira bitiga qarshi kurash olib borilmasa, iyul boshlaridayoq daraxtlar batamom bargini to'kib yuboradi.

Zararlangan daraxt novdalari qing'ir-qiyshiq, mevasi qattiq, bemaza bo'lib, normal darajada katta bo'lmaydi va ko'pincha shira bitining yopishqoq axlatiga belashadi. Nok shira biti O'rta Osiyoda uchraydi, unga qon-qardosh bo'lgan *Psylla pyricola* Forst. Turi Yevropada tarqalgan, bu tur shimolga va Shimoliy Amerikada ham tarqalgan. Shira biti voyaga yetganda uzunligi 3 mm gacha bo'ladi. Rangi sarg'ish yoki och yashil — qo'ng'ir tusda bo'ladi. Qornida ko'ndalang qora yo'llari bor. Shira bitining qanotlari tiniq bo'lib, orqadagi chekkasida qoramtir dog'i bor; orqa qanotlari oldingilariga qaraganda kaltaroq. Shira bitining urg'ochisi erkagidan biroz katta.

Erkaklarida qorin segmentlarining pastki tomonida ikkitadan, ko'ndalang qoramtir yo'l o'tadi, urg'ochisida esa ikkitadan yumaloqqoramtir dog'I bo'ladi. Urg'ochilarining qorin uchi pastga osilib, erkaginiki esa birmuncha yuqoriga ko'tarilib turadi. Qishlayotgan shira bitlari yozgi shira bitlaridan bir oz yirik va qoramtir bo'ladi. Tuxumlari mayda, oq bo'lib, oddiy ko'zga arang ko'rinadi; lichinkalari tuxumdan chiqishdan oldin sarg'ish tusga kiradi. Tuxumning bir uchi kengaygach, kichik poyachasi bo'lib, shu bilan shoxga yopishadi; tuxumning ikkinchi tomoni uchli bo'lib, xivchin shaklidagi maxsus ortig'i bor. Lichinkasi qanotsiz, sariq, ba'zan yashil, yapaloq bo'ladi.

Kattaroq yoshdagi lichinkasi birmuncha yirikligi va qanot boshlang'ichi borligi bilan farq qiladi. Shira biti voyaga yetganda nok daraxtlarining shoxlarida va qisman tanasidagi po'stloq po'stlari ostida qishlaydi.

Daraxt kurtak ochishidan sal oldin shira bitlari juftlashadi va tuxum qo'ya boshlaydi. Tuxumni shoxlarning uchiga va kurtaklar yaqiniga qo'yadi. Hashoratning birinchi bo'g'ini bo'rtgan kurtaklar, yozilgan burklar va ayniqsa, gul kosachalarining shirasini so'radi. Zararkunanda tez rivojlanadi: aprelning oxiri-mayning boshlarida yangi bo'g'inning qanotli shira bitlari paydo bo'ladi. O'rta Osiyoda shira biti yoz davomida 4–5 ta bo'g'in beradi [4]. Birinchi bo'g'inning qanotli shira bitlari paydo bo'ladigan vaqtgacha qishlab chiqqan yirikroq va qoramtir shira bitlari obud bo'ladi. Yozgi bo'ginlarning urg'ochilari qanot chiqargandan 3–8 kun keimbarg ustki tomonining asosan tomirlari bo'ylab tuxum qo'yadi. Urg'ochi shira biti umrida 300–480 ta tuxum qo'yadi.

Voyaga yetgan shira biti taxminan 2–3 oy yashaydi, shning uchun yozda har xil bo'g'inarning shira bitlari uchraydi. Voyaga yetgan shira bitlari doimo bir joydan ikkinchi joyga uchin yuradi, lichinkalari esa kam harakat qiladi. Birinchi bo'g'indan boshqa bo'g'inlarning lichinkalarijuda ko'p suyuq, yopishqoq shirali axlat chiqaradi, bu hashoratning shira biti degan nomi ham shundan olingan. Yoz ohirlarida shira bitlari ayniqsa ko'p axlat chiqaradi.

Bu axlat barglardan oqin tushib, daraxt shoxlari, tanasi va mevalarini iflos

qiladi; axlat tekkan mevalarda och qo'ng'ir dog'lar bo'ladi. Voyaga yetgan shira bitlari yozda ham, kuzda ham daraxtdan daraxtga o'taveradi, shu bilan birga ular kuzda ko'plashib qishlaydi. Nok daraxtlarni zararkunandalardan ximoya qilishning o'ziga xos nozik tomonlari bor, chunki mevalarning, ayniqsa ertapishar navlarda zararkunandalarga qarshi uzluksiz insektisidlarni ishlatib bo'lmaydi, ikkinchidan zararkunandalarga qarshi kurash choralari olib borilayotganda faqat birgina zararkunandani xisobga olmasdan balki kompleks zararkunandalarga qarshi ishlov berishi lozim [5].

NATIJALAR

Nok daraxtlarini zararkunandalardan himoya qilishning o'ziga xos nozik tomonlari bor, chunki mevalarning, ayniqsa ertapishar navlarida zararkunandalarga qarshi uzluksiz insektisidlarni qo'llab bo'lmaydi. O'zbekiston sharoitida nokzorlarga nok kanasi va nok shira bitlari katta zarar keltiradi. Nokning kalmaraz (qo'tir, parsha) kasalligi nokda dunyoning barcha mamlakatlarida, jumladan Markaziy Osiyo davlatlarida ham tarqalgan, O'zbekistonda barcha viloyatlarda uchraydi. Kasallik nok daraxtlarining barg, gulkosachabarglari va mevalarini, barg va meva bandlarini, novda va kurtak tangachalarini (qobiqlarini) zararlaydi. Nok mevalari kuchli shikastlanadi, ularning ustida (oldin gul bo'lgan tomonda, keyin yonlarida ham) dog'lar paydo bo'ladi, ular o'sib kattalashadi va qo'shilib, to'qqo'ng'ir yoki qora tusli yaralar hosil qiladi, meva xunuk shakl oladi, chatnab ketadi. Barglarda dog'lar har ikki tomonida paydo bo'ladi, ular qo'ng'ir tusli, dumaloq, eni 5-10 mm. Barg va mevadagi dog'lar ustida konidiyalar faqat yoz oxirlarida, nam obhavo kuzatilganida kam miqdorda hosil bo'ladi. Barg

tomirlari bo'ylab, barg va meva bandlarida hamda yosh novdalarda dog'lar qo'ng'ir, uzunchoq shaklli. Novdalarning zararlangan joylari probkashadi, chatnaydi, ularda konidiyalar hosil bo'lmaydi yoki kam miqdorda kuzatiladi. Bu kasallik bilan madaniy (*Pyrus communis*, *P. serotina*, *P. ussuriensis*) va boshqa nok turlari zararlanadi. Kasallikni *Venturia pirina* askomitset (pirenomitset) zamburug'i qo'zg'atadi; anamorfasi *Fusicladium pyrorum*. Yerga to'kilgan barg va mevalarda zamburug'ning psevdotetsiyalari stroma ichida rivojlanadi.

Psevdotetsiyalar ko'pincha baglarning ostki tomonida, dumaloq shaklli, diametri 100-240 mkm, to'q-qo'ng'ir yoki qora tusli, bargdan tashqariga o'rtasi teshik uchi bilan chiquvchi, uchi atrofida qillari mavjud yoki mavjud emas. Xaltachalari silindr shaklli.

Har bir xaltacha ichida 8 ta askospora mavjud. Askosporalar och-yashil tusli, 2 hujayrali, septadan biroz tortilgan, odatda ustki spora pastkisidan uzunroq. Konidioforalari silindr shaklli, qo'ng'ir yoki zaytun-qo'ng'ir tusli, uzunligi 16,5-18 mkm, eni 4-9 mkm. Konidiyalari (keng)urchuq shaklli, ustida silliq yoki juda mayda bo'rtmachalari bor, 1 kam hollatda 2 hujayrali, pastki qismi kesilgan. Kasallik rivojlanishi, qo'zg'atuvchining qishlashi, nok daraxtini birlamchi va keying zararlashlari va bog'da tarqalish yo'llari olmadagi bilan bir xil. Askosporalar yetilishi va tarqalishi 6-8 hafta davom etadi. O'zbekiston sharoitida zamburug' 1 mavsumda bir necha avlod beradi. Agrotexnik va sanitariya tadbirlari va kimyoviy kurash choralari olmadagi

kalmarazga qarshi ishlatiladiganlari bilan bir xil. Chidamli navlar ekish choralari ko'riladi. Kasallik qo'zg'atuvchisining fiziologik irqlari mavjud bo'lib (hozirgacha Isroilda 5 ta, Angliyada 4 ta irq ajratilgan), nok navlarining ularga chidamliligi har xil. Bartlett, Bere Bosk, Komis, Danjuy, Paxams Triumpf, Spadana Estiva, Vinter Nelis, Lesnaya krasavitsa, Talgarskaya krasavitsa, Lyubimitsa Krappa va ko'p boshqa navlar qattiq shikastlanadi. Nisbatan chidamli navlar qatoriga Kongress, Maslovka Klappa, Bessemyanka, Bergamot, Vassa, Bere Ligelya, Bere Klerjo, Bere Bosk va Bere Bor navlari kiradi. Koskiya navi yuqori chidamlilikga ega.

